

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA‘LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI**

**“IJTIMOIY-IQTISODIY FANLAR METODIKASI” KAFEDRASI**

**UMUMTA‘LIM MAKTABLARI O‘QITUVCHILARI MALAKASINI  
OSHIRISH KURSINING TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL  
ETISHNING HUQUQIY-ME‘YORIY ASOSLARI  
MODULI BO‘YICHA**

***O‘QUV – USLUBIY MAJMUA***

**Malaka toifa yo‘nalishi:** Umumta‘lim maktablarining barcha yo‘nalishlardagi fan o‘qituvchilari

**Tiglovchilar kontingenti:** Umumta‘lim maktablarining barcha yo‘nalishlardagi fan o‘qituvchilari malaka oshirish kurslari uchun

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua hududiy markaz direktor huzuridagi kengaytirilgan yig‘ilishining \_\_\_\_\_yil \_\_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan umumta’lim maktablarining barcha yo‘nalishlardagi fan o‘qituvchilarining malakasini oshirish toifa yo‘nalishlari o‘quv rejasi va dasturi asosida tayorlandi.

**Tuzuvchilar:** dots.D.Rahimova-Samarqand VXTXQTMOHM  
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi.

J.Oripov-Samarqand VXTXQTMOHM “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:** A.Samadov– SamDU “Fuqarolik jamiyati va milliy g‘oya” kafedrasida dotsenti,f.f.n.

M.Nasrullayev–SamDU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti,t.f.n.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua hududiy markaz direktor huzuridagi kengaytirilgan yig‘ilishining \_\_\_\_\_yil \_\_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	16
IV. KEYS BANKI .....	78
V. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI .....	80
VI. GLOSSARIY .....	82
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	83

**I**

**ISHCHI DASTUR**



## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita ta'lim-tarbiya sohasiga innovatsiyalar va sohaga oid bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar joriy etilishini taqozo qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahrirda takomillashtirilayotganligi ta'lim sohasini tubdan yangilanayotganligidan dalolatdir.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son va 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlarining qabul qilinishi xalq ta'limi tizimga zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni, xorijiy tajribalarni joriy etish, o'quv-metodik majmua va qo'llanmalar hamda elektron darsliklarning yangi avlodini yaratishni, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Davr, xalq ta'limi xodimlaridan yuksak huquqiy madaniyatli bo'lishni talab etmoqda. Zero, yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxs o'zining huquqlari, erkinliklari va yurti, xalqi oldidagi ma'suliyatini anglab etadi. "Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari" dasturida ta'lim tizimiga oid huquqiy me'yoriy-hujjatlarni qabul qilish va o'zgartirish kiritish tartiblarining huquqiy asoslari yoritib berilgan.

O'quv dasturda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslari, bola huquqlarining me'yoriy-huquqiy asoslari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari hamda qarorlarini mazmun-mohiyati bayon etilganligi bilan ham xalq ta'limi xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hizmat qilish bilan ahamiyatlidir.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursi tinglovchilarining ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-ta'lim-tarbiya jarayonlariga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosi ekanligini o'rgatish;

- O‘zbekiston Respublikasining ta’lim-tarbiya sohasiga oid qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- tinglovchilarda me’yoriy-huquqiy hujjatlarni amalda qo‘llash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- bola huquqlarining kafolatlanganligining qonuniy asoslarini yoritib berish;
- korrupsiyaga qarshi kurashning me’yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etish tartiblarini tushuntirish;
- majburiy mehnatni oldini olish bo‘yicha asosiy hujjatlar borasida bilim berish;
- mehnat huquqi sohasidagi faoliyatni yangilanish jarayonlarini mohiyatini tushuntirish;
- ta’lim sohasiga oid qonun osti hujjatlari to‘g‘risidagi bilimlarni takomillashtirish;
- me’yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilish va ularning ijrosini ta’minlashda tinglovchilarning mas’uliyatini oshirish;
- tinglovchilarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirish;
- tinglovchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish kabilardan iborat.

### **“Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari” bo‘yicha**

#### **Tinglovchilar:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid farmonlari, qarorlari mohiyati va ularda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida belgilangan ta’lim-tarbiya sohasidagi vazifalarni;
- Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar, modernizatsiyalash va integratsiyalash jarayonlarining mazmun-mohiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o‘rta ta’limga oid qarorlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim-tarbiya sohasiga oid qarorlarining mazmun-mohiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishga tegishli konseptual g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etishni;
- maxsus vakolatli davlat organlarining buyuruqlari mazmunini;
- huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida pedagogik faoliyat va o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- shaxsiy o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularni tizimli bajarish;
- o‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini adolatli baholash;

-ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish bo'yicha belgilangan vazifalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga;

-ta'lim-tarbiya jarayonidagi muammolarni aniqlash va echimi bo'yicha amaliy faoliyat olib borish;

-milliy taraqqiyotimizga taalluqli huquqiy-me'yoriy hujjatlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalariga;

-xalq ta'limining kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish;

-demokratik taraqqiyot va jamiyat rivojining mazmun-mohiyatini tushuntirish hamda ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar:**

“Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari” moduli nazariy mashg'ulotlar hamda mustaqil ish shaklida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining takomillashuvi nazariy va mustaqil mashg'ulot tarzida, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining takomillashuvi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari sifatida qonun osti hujjatlari va ta'lim sohasida huquqiy ta'lim va tarbiya berish faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini singdirishdan iborat. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa blok va modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Modul mazmuni o'quv rejadagi “ O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati” moduli bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur modul “Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat”, “Ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash” va “Mutaxassislik fanlari” bloklaridan avval o'rganiladi. Modulni o'rganish jarayonida undan keyin o'rganiladigan bloklarning mazmun yo'nalishlarini va g'oyaviy jihatlarini xalq ta'limiga tatbiq etish imkoniyatlarni ochib beradi.

### **Modulning ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, bola huquqlariga oid qonunchilik va korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslarini o'rganish, o'rganganlarini tahlil

etish, tatbiq qilish, huquqiy-me'yoriy hujjatlarga murojaat qilish orqali ularni amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

#### 1.2. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari

№	Modul mavzulari	Hammasi	Jami o'quv yuklamasi	Jumladan			Mustaqil ta'lim
				nazariy	amaliy	Ko'chma mashg'ulo	
1	O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining takomillashuvi.	4	4		2		2
2	Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari sifatida qonun osti hujjatlari.	4	2	2	2		
3	Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari va qarorlarida ta'lim-tarbiya masalalari	2		2			
	<b>Jami</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>4</b>		<b>2</b>

#### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-Mavzu: O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasiga oid qonun hujjatlarining takomillashuvi. (2 soat amaliy).**

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim-tarbiya masalalari. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ta'lim-tarbiya sohasidagi yangilanish va islohotlar hamda amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan vazifalar.* O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasiga oid qonunchilik va Kadrlar tayyorlash milliy tizimi takomillashuvining huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunini. "Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi.



O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

Majburiy mehnat tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining 29-son Konvensiyasi va “Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risida”gi 105-sonli Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi. Majburiy mehnatni oldini olish bo‘yicha asosiy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining qabul qilinishi va mehnat qonunchiligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

**2-Mavzu: Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari sifatida qonun osti hujjatlari. (2 soat nazariy 2 soat amaliy).**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida belgilangan ta’lim-tarbiya sohasidagi vazifalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4342-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

PQ-4444-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4537-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim-tarbiya sohasiga oid qarorlarining mazmun-mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishga tegishli konseptual g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori, 2018-yil 10-maydagi "O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 349-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 701-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 823-sonli Qarori.

### **3-Mavzu: Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari va qarorlarida ta’lim-tarbiya masalalari. (2 soat nazariy)**

Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari va qarorlarida belgilangan ta’lim-tarbiya sohani takomillashtirishga qaratilgan vazifalar va ularning huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Eksternat to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2018-yil 15-noyabrdagi 13-mh-son buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2018-yil 27-iyul “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik

mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 9-mh-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Umumta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 17-dekabrda 9-mh-son qarorlarining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash"gi 2018-yil 26-dekabrda 16-mh-son buyrug'i.

### **MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI**

Modulga oid o'rganilgan materiallar asosida "Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari sifatida qonun osti hujjatlari" mavzusida mustaqil ish bajariladi.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur fan bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar (ma'lumotlarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ta'lim sohasidagi huquqiy-me'yoriy asoslar bo'yicha o'z qarashlarini bayon etish va mantiqiy xulosalar chiqarish).

## **II**

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI  
TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-  
ME'YORIY ASOSLARI  
MODULNI O'QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA'LIM METODLARI**



### “SWOT-tahlil” metodi.

“SWOT-tahlil” metodi boshqa metodlarda bo‘lgani kabi o‘zining maqsad vazifalariga egadir. Mazkur metodning maqsadi, mavjud nazariy bilim va to‘plangan tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash asosida muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga mo‘ljallangan.

<b>S-(Strength).</b> Kuchli tomonlari.	<b>W-(weakness).</b> Zaif, kuchsiz tomonlari.
<b>O-( opportunity).</b> Imkoniyatlar.	<b>T-(threat).</b> To‘siqlar.

Fan asoslarini egallash, ta‘lim oluvchilarni muammoli xarakterdagi mavzuni o‘rganish va mazkur mavzu yuzasidan xulosaga kelish, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishida boshqa interfaol metodlar (usullar) singari “Xulosalash metodi”ning samaradorligi va ahamiyati kattadir. Mazkur metodni ta‘lim tizimida qo‘llashda muayyan qoida va me‘zonlarga e‘tibor qaratish talab etiladi. Chunki bu me‘zonlarga e‘tibor qaratish, ushbu interfaol metodning maqsadidan kelib chiqadi.

Xulosalash metodning maqsadi, murakkab, ko‘p tarmoqli, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammoni ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Xulosalash” metodidan ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarida individual va juftliklarda, kichik guruhlarda foydalanish tavsiya etiladi.

### Namuna:

Tahlil turlarining qiyosiy tahlili					
Tizimli tahlil		Syujetli tahlil		Vaziyatli tahlil	
Afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Muammoni kelib chiqish sababli va kechish jarayonini aloqadorligi	Alohida tayyorgarlikka ega bo‘lishni, ko‘p vaqt ajratishni	O‘z vaqtida muosabat bildirish imkoniyatini beradi	Munosabat boshqabir syujetga nisbatan qo‘llanisho‘ga yaroqsiz	Vaziyat ishtirokchilarning (ob‘ekt va sub‘ekt) vazifalarini	Dinamik xususiyatni belgilab olish uchun qo‘llab bo‘lmaydi

jihatidan o'rganish imkoniyatiga ega	talab etadi			belgilab olish imkolnini beradi	
<p><b>Xulosa:</b> Tahlilning barcha turlari ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchiliklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.</p>					

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**»<sup>1</sup> aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi<sup>2</sup>.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- 1) Kim (Who);
- 2) Qachon (When);
- 3) Qayerda (Where);
- 4) Nima uchun (Why);
- 5) Qanday/Qanaqa (How);
- 6) Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash.</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash.</li> </ul>

<sup>1</sup> Keys – аниқ вазият, ходиса, «study» – ўрганмоқ, таҳлил қилмоқ.

<sup>2</sup> Бу метод 1921 йилда Гарвард университетида амалий вазиятлардан иқтисодий бошқарув фанларини ўрганишда фойдаланилган.

<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining seminar aspektlarini yoritish.</li> </ul>
--	--

**Keys.** Tasavvur qiling! “Pedagog-o‘quvchi” ko‘rinishida pedagogik nizo vujudga keldi. Qaror qabul qilish uchun tizimli tahlilni amalga oshirish talab etilmoqda. Tahlil usullarini belgilab, yuzaga kelgan vaziyatni ta’lim-tarbiya manfaatidan kelib chiqqa holda yondashish talab etilmoqda.

#### **Keysni bajarish bosqichlari**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilangan (individual vakichik guruhda).

- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ishlash).

#### **“INSERT” metodi**

“INSERT” metodning maqsadi, ta’lim oluvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarning o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan metod bo‘lib, ular uchun xotira mashqi vazifasini ham bajaradi.

#### **“INSERT” metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchilar mashg‘ulotni bajarishga qadar mavzuning asosiy tushunchalarining mazmuni yoritilgan mavzuga oid matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzuning mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda ular quyidagi maxsus belgilardan foydalanishlari mumkin:

<b>Belgilar:</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – bu menga tanish ma’lumot			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+” – bu ma’lumot men uchun yangilik			
“– ” – bu fikr yoki ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor-o‘qituvchi yoki trener tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi. Ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va

mashg'ulot yakunlanadi.

### **“Yalpi fikriy hujum” metodi**

“Yalpi fikriy hujum” metodini J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20, 40 va 60) nafar ta’lim oluvchilardan iborat guruhlarda qo‘llash mumkin. Ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar ta’lim oluvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqda guruh a’zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning echimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

### **Arra metodi (E.Aronson, 1978)**

Arra metodidan foydalanishda kichik guruhlar 6-8 ta o‘quvchidan tashkil topgan bo‘lishi tavsiya etiladi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarilishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassis» bo‘lishi shart, mazkur «mutaxassis»lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi «arra» tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o‘quv materiallari mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

1986-yili R.Slavin «Arra» metodini qisman o‘zgartirib «Arra-2» metodini yaratdi. Mazkur metodga ko‘ra kichik guruh 4-5 o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o‘quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib «mutaxassis»ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxassis»lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi.

O‘quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o‘tqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a’zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to‘plagan guruh g‘olib sanaladi.



# III

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI  
TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-  
ME'YORIY ASOSLARI  
MODULNI O'QITISH UCHUN  
NAZARIY MA'LUMOTLAR**



# 1-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA’LIM-TARBIYA SOHASIGA OID QONUN HUJJATLARINING TAKOMILLASHUVI

Ma’ruza mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi:

<i>Tinglovchilar soni:</i>	<i>Vaqt: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli ma’ruza mashg‘ulot</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot
<i>Ma’ruza mashg‘ulot rejasi</i>	<p>1.1.Me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning huquqiy asoslari.</p> <p>1.2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim va tarbiya masalalari.</p> <p>1.3.O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya sohasidagi qonunchilik va Kadrlar tayyorlash milliy tizimi takomillashuvining huquqiy asoslari.</p> <p>1.4.O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun va mohiyati.</p> <p>1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi.</p> <p>1.6.O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.</p> <p>1.7. O‘zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar.</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘zbekiston Respublikasining ta’lim-tarbiya sohasiga oid qonun hujjatlarining takomillashuvi.</i>	
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuni mustaqil o‘rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>• mavzu bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• nazariy mashg‘ulot rejasi bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko‘radilar;</li> <li>• Me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning huquqiy asoslari bilan tanishadilar;</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim va tarbiya masalalari sohasida bilimga ega bo‘ladilar;</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• to'g'ridan-to'g'ri va jamoa bo'lib qo'yilgan vazifani bajarishga, tahlil qilishga va qaror qabul qilishga shart-sharoit yaratadi;</li> <li>• mustaqil ishlash uchun imkoniyat yaratadi;</li> <li>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishini shakllantiradi;</li> <li>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasidagi qonunchilik va Kadrlar tayyorlash milliy tizimi takomillashuvining huquqiy asoslari bilan tanishadilar.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bilan tanishtiradi.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligi sohasida amalga oshirilgan islohotlarhaqida bilimga ega bo'ladilar.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, kichik guruhlarda ishlash, "Tayanch iboralar bilan ishlash" va "Tushunchalar tahli" usullari namoyishi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma material, kompyuter texnologiyasi, slaydlar.
<i>O'qitish shakllari</i>	To'g'ridan-to'g'ri, jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qi-tish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
<i>Monitoring olib borish</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'quv topshiriq.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi:**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Tinglovchi</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (15 minut)	1.1. O'quv mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar
	1.2. Tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'ladi.	Interfaol usullardan foydalanilgan holda
	1.3. Tinglovchilarning mashg'ulot-	Yozib oladilar

	dagi faolligini aniqlash mezonlari bilan tanishtiradi.	
	1.4.Mavzu bo'yicha tayyolangan topshiriqlarni tarqatadi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
II-bosqich. Asosiy (55 minut)	2.1.Ma'ruza mashg'ulotining vizual materialini namoyish qiladi. Guruhlarga tarqatma material taqsimlanadi, topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozga tushurib, taqdimotni o'tkazishiga ko'mak beradi, izohlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor qaratadi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Faol qatnashadilar, jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, baxs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar xulosa chiqaradilar, baholaydilar.
	2.2. Guruhlarga <b>"E'tiborni jamlash"</b> interfaol usuli va tarqatma materiallari va topshiriqlar navbatma-navbat berib boriladi.	Guruhlar taqdimot o'tkazadi.
	2.3.Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushurib, taqdimotni o'tkazishda yordam beradi va nihoyasida umumlashtiradi. Baxs-munozaraga kirishishuchun sharoit yaratadi.	Taqdimot o'tkazadilar, g'olib guruhlarni aniqlaydilar. Baholaydilar.
III-bosqich. YAakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol tinglovchilarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar chiqaradi. 3.3.Tinglovchilarga "O'zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar" mavzulari uyga vazifa qilib beriladi.	Mustaqil ishlash uchun topshiriq yozib olinadi.

**Tayanch iboralar:** *me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qonun, Konstitutsiya, qonunosti hujjatlari, farmon, farmoyish, qaror, buyruq, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Milliy dastur, bola, yoshlar, majburiy mehnat, korrupsiya.*

### **1.1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning huquqiy asoslari.**

O'zbekiston Respublikamizda xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy himoya qilish va ta'lim tizimini takomillashtirish hamda aholining intellektual salohiyati, huquqiy saodxonligini oshirish, jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish singari jamiyatning barcha sohalarida tub ijobiy o'zgarishlar, yangilanishlar, bir so'z bilan aytganda amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, o'tgan davr mobaynida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida yaratilgan qonunlar mamlakatimiz fuqarolarini huquq va erkinliklarini, inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash hamda mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning munosib hayot kechirishini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib kelmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi **“Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”** nomli ma'ruzasida: “Shu yilning o'zida 70 dan ortiq qonun, 350 dan ziyod Prezident Farmoni va qarorlari qabul qilindi. Bu qonun hujjatlari kim uchun va anima maqsadda qabul qilinmoqda? Albatta, xalqimiz farovonligi uchun”,- deb ta'kidlaganlarida mamlakatimiz va xalqimizning ijtimoiy hayotida me'yoriy-huquqiy hujjatlarning o'rni va ahamiyatini naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Jamiyat ijtimoiy hayotidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, shu bilan bir qatorda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, bir so'z bilan aytganda me'yoriy-huquqiy hujjatlari tartibga solishning asosiy muhim hujjatlaridir.

O'zbekiston Respublikasining “Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasida: “Me'yoriy-huquqiy hujjat ushbu Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir”,-deb ta'rif berilgan. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar rasmiy hujjat hisoblanganligi uchun ham bunday hujjatlarni qabul qilish vakolatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari egadir.

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qonunlar va qonunosti hujjatlari turlariga bo‘linadi va quyidagilar me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi:

- ❖ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- ❖ Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- ❖ Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonun osti hujjatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi so‘zsiz tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O‘zbekiston Respublikasining butun hududida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning me‘yorlari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin.

Kodekslar O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida me‘yoriy -huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar va qarorlar tarzida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar o‘z vakolati doirasida buyruqlar hamda qarorlar tarzida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Buyruqlar vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Qarorlar davlat qo‘mitalari tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilishni mazkur idoraning kollegial organi amalga oshiradigan idoralar tomonidan qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan qo‘shma qarorlar tarzida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy organlari me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqi berilgan idora qayta tashkil etilgan taqdirda, huquqiy vorisga o‘z vakolati doirasida me‘yoriy -huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqi bilan birga ilgari qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish vakolatlari ham o‘tadi, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tugatilgan yoxud u tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqini huquqiy vorisiga bermasdan qayta tashkil etilgan taqdirda, ilgari qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish vakolatlari yuqori turuvchi yoki boshqa vakolatli organga o‘tadi.

Vazirlikning, davlat qo‘mitasining yoki idoraning nomi o‘zgartirilgan taqdirda, uning ilgari nomi ko‘rsatilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning o‘zgartirilgan nomga oid qismiga o‘zgartirish yoki qo‘shimcha kiritilishi lozim. Bunday o‘zgartirishlar yoxud qo‘shimchalar kiritilguniga qadar ilgari nomi ko‘rsatilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning amal qilishi nomi o‘zgartirilgan vazirlikka, davlat qo‘mitasiga yoki idoraga to‘liq hajmda tatbiq etiladi.

Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora maqomining o‘zgartirilishi ular tomonidan ilgari qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar amal qilishining tugatilishiga olib kelmaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolati doirasida qarorlar tarzida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati yuqori turuvchi organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ushbu hujjatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan nizomlar, qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlar tasdiqlanishi mumkin.

Turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo‘yicha o‘zaro nisbati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatiga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Me‘yoriy-huquqiy hujjat o‘ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi shart.

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy hujjat qo‘llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi, ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

Agar me‘yoriy-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qo‘mitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo‘lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Me‘yoriy-huquqiy hujjatning matni lo‘nda, oddiy va ravon tilda bayon etiladi. Me‘yoriy-huquqiy hujjatda foydalaniladigan tushunchalar va atamalar turlicha



izohlash imkoniyatini istisno etadigan, ularning qonun hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda qo'llaniladi. Eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatda uni amalga oshirishning huquqiy vositalari, shu jumladan moliyalashtirish manbalari, rag'batlantirish, mukofotlash va nazorat qilish chora-tadbirlari ko'rsatilishi mumkin.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, shuningdek mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning majburiyatlarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatda ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik choralari, agar bunday choralarda qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan bo'lsa yoki alohida me'yoriy-huquqiy hujjatda belgilanmasligi kerak bo'lsa, nazarda tutiladi.

Me'yoriy-huquqiy hujjat uning qabul qilinishi sabablari va maqsadlariga oid tushuntirishni qamrab olgan muqaddimaga ega bo'lishi mumkin. Huquqiy me'yorlar muqaddimaga kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida huquqiy me'yorlar tartib raqamiga ega bo'lgan moddalar ko'rinishida bayon etiladi. Moddalar qismlarga ajratilishi mumkin. Moddalarning qismlari bandlar, kichik bandlar va xatboshilarni qamrab olishi mumkin. Boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda huquqiy normalar tartib raqamiga ega bo'lgan bandlar tarzida bayon etiladi. Bandlar kichik bandlar va xatboshilarga ajratilishi mumkin.

Hajm jihatidan yirik me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmunan yaqin bo'lgan moddalari (bandlari) paragraflar va boblarga birlashtiriladi. Zarur hollarda boblar bo'limlarga va kichik bo'limlarga birlashtirilishi mumkin. Bo'limlar, kichik bo'limlar, boblar va paragraflar sarlavhalarga ega bo'ladi hamda raqamlanadi.

Zarur hollarda, me'yoriy-huquqiy hujjatda yuridik, texnik va boshqa maxsus atamalar hamda tushunchalarning qisqacha ta'rifi beriladi, umum qabul qilingan qisqartmalar qo'llaniladi va boshqa qisqartmalarga tushunchalar beriladi.

Zarur holda me'yoriy-huquqiy hujjatda yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatning ayrim qoidalari mazkur hujjatga havola qilingan holda aynan takrorlanadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatda, qoida tariqasida, xuddi shunday yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning huquqiy normalari qayta aynan takrorlanmaydi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda havolalar huquqiy normalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish yoki takrorlashlarga yo'l qo'yimaslik zarurati bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Havolalar aniq bo'lishi va me'yoriy-huquqiy hujjatni yoxud uning alohida qoidalarini ko'rsatishi kerak.

Me'yoriy-huquqiy hujjatning rasmiy matni unga imzo qo'yish yo'li bilan, ya'ni:

O'zbekiston Respublikasining qonuni — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarori — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori — O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari — me'yoriy-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ rahbari;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari — tegishli hokim tomonidan tasdiqlanadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerak. Rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hech kim hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Me'yoriy-huquqiy hujjat bayon tarzida rasmiy e'lon qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Me'yoriy-huquqiy hujjat rasmiy e'lon qilinganda uning barcha rekvizitlari ko'rsatiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllari ularni qabul qilgan organlarning rasmiy veb-saytlariga me'yoriy-huquqiy hujjat rasmiy e'lon qilinganidan keyin bir kun ichida joylashtirilishi shart. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllarini e'lon qilish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni me'yoriy nashrlarda e'lon qilishga, shuningdek ularni qonun hujjatlarining elektron ma'lumot tizimlari orqali tarqatishga me'yoriy-huquqiy hujjat rasmiy manbalarda e'lon qilinganidan so'ng, ularning barcha rekvizitlarini, ular e'lon qilingan rasmiy nashrlarni va ularning kuchga kirish sanasini ko'rsatish sharti bilan yo'l qo'yiladi. Bunda rasmiy nashrlarda e'lon qilingan me'yoriy-huquqiy hujjat matnining aniq takrorlanishi ta'minlanishi lozim.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetolari, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

“O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to‘plami”, “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetolari, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, shuningdek vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning rasmiy nashrlari vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari mazkur organlarning qarorlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, ular rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

## **1.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta‘lim va tarbiya masalalari.**

Har qanday davlatning bosh qonuni uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiya so‘zi lug‘aviy jihatdan “Nizom”, “Qoidalar to‘plami” degan ma‘nolarni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatiga ko‘ra mamlakatimiz va uning fuqarolari hayotida juda katta ahamiyatga ega ekanligini alohida e‘tirof etish joiz.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilish hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlari belgilab berilgan. Amaldagi barcha qonunlar va boshqa hujjatlar Konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, Muqaddima, 6 bo‘lim (1-bo‘lim. Asosiy prinsiplar, 2-bo‘lim. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinlik va burchlari, 3-bo‘lim. Jamiyat va shaxs, 4-bo‘lim. Ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi, 5-bo‘lim. Davlat

hokimiyatining tashkil etilishi, 6-bo'lim. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.), 26 bob, 128 moddadan iborat.

Mazkur Konstitutsiya avvalgi Konstitutsiyalardan o'zining yuridik mazmun va mohiyati jihatidan farq qilib, bu Konstitutsiyada davlatning mustaqilligi mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqaro tashkilotlar va ekspertlar tomonidan e'tirof etilganligi esa davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini oshirmoqda va mustahkamlamoqda. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlat barpo etishning bosh mezonini bo'lib kelmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbar xodimlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a'zolari qat'iy amal qilishi shart bo'lgan muhitni yaratish g'oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun Konstitutsiyamiz asosida ko'plab yangi qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ayni vaqtda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash qonun buzilishi bilan bog'liq salbiy oqibatlariga qarshi samarali kurashishni hamda bunday holatning barvaqt oldini olishga qaratilgan ta'sirchan tizimni shakllantirishni talab etmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi **“Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”** nomli ma'ruzasida: “Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bog'liq.

Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir”,- deb ta'kidladilar. Haqiqatdan jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu har bir shaxsda qonunlarga, inson huquq va erkinliklariga nisbatan

hurmat bilan munosabatda bo'lishni hamda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik muhitini qaror toptiradi.

Har bir suveren davlatning bosh huquqiy asosi bu uning Konstitutsiyasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi bilan tavsiflanadi. O'tish davridagi murakkab zamonda yaratilgan ushbu bebaxo va benazir hujjat asosiy qonun shaklida jamiyatning, xalqning manfaati hamda kelajagiga umid va ishonch uyg'otdi, ijtimoiy taraqqiyotga mo'ljal oluvchi yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Har bir jarayon yoki voqeilikni o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda:

**birinchidan**, ushbu hujjatda huquqiy va siyosiy ongning eng yuksak yutuqlarini, hozirgi zamon, konstitutsiyaviylik ilmini o'ziga jalb etgani, o'zbek xalqi madaniyati va milliy an'analarining chuqur ildizlariga suyanilganligi;

**ikkinchidan**, bu hujjatda, O'zbekiston Respublikasidagi avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimni amalda boshqa tizimga aylanganligini, tubdan o'zgarish ro'y berganini Konstitutsiyaviy mustahkamlaganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mazmunan yangi siyosiy hujjatdir. Unda ijtimoiy-siyosiy xususiyat, uni rivojlantirishning asosiy g'oyalari, respublika ichki va tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari hamisha ustuvor, birlamchi kuchga ega ekanligi bilan ham uning asosida me'yoriy – huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. Eng muhim jihatlaridan biri mamlakatimiz Konstitutsiyasida insonparvarlik, adolat g'oyalari mustahkamlab qo'yilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil davlatimizning Konstitutsiyasining oldingi qonunlardan va boshqa davlatlarning Konstitutsiyalaridan ajralib turadigan o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

**birinchidan**, 1992 -yilgi Konstitutsiyamiz o'zining tub mohiyati va falsafasi, maqsadlari va g'oyalariga ko'ra yangi hujjatdir;

**ikkinchidan**, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'zining ichki tuzilishi va yangi konstitutsiyaviy institutlari bilan ajralib turadi;

**uchinchidan**, Asosiy Qonun boshqa konstitutsiyalardan farqli o'laroq, o'ta mafkuralashtirish va siyosatlashtirish ruhi bilan sug'orilmagan. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q;

**to'rtinchidan**, Konstitutsiyamiz jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquq talab va qoidalariga javob beradigan tarzda tayyorlangan;

**beshinchidan**, Konstitutsiyamiz jahon konstitutsiyaviy tajribasiga keng

tayanishi va ijobiy tomonlardan atroflicha foydalanganligi bilan ham ajralib turadi. Konstitutsiyamiz eng taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, AQSh, Turkiya, Fransiya, Germaniya Shvetsiya, Italiya kabi G'arb davlatlari, ruhiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarining boy tajribasidan eng demokratik jihatlarni, insonparvarlik g'oyalarni tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarning talablarini o'zida jamlagan;

*oltinchidan*, Konstitutsiyamizni mustaqil davlatimiz ravnaqining huquqiy kafolati darajasiga ko'taruvchi eng muhim belgi unda jahonning ilg'or konstitutsiyaviy tajribasini milliy-ma'naviy va huquqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining boy tarixiga uyg'unlashtirilib qo'llanilganidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lsa, unga 1993-yil 28-dekabrda birinchi bor Konstitutsiyasining 77-moddaning 1-qismiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritilgan.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga, O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 89-modaasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 77-moddasining birinchi qismiga, O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartirish va O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 90-moddasining ikkinchi qismiga hamda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan Konstitutsiyasining 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80, 93, 108 va 109-moddalariga va O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99 va 102-moddalariga o'zgartirishlar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasining birinchi qismiga o'zgartirishlar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb ko‘rsatilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman”,- deb ta’kidladilar. Buning uchun albatta unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimiz albatta har tomonlama ham ma’nan, ham aqlan, ham jismonan sog‘lom va teran fikrlovchi, o‘zining nuqtai nazariga ega, o‘z erkinligining chegarasini biluvchi va o‘zgalar huquqini hurmat qiladigan, bir so‘z bilan aytganda har tomonlama yetuk bo‘lishlari talab etiladi. Biz yoshlarimizni qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishimiz zarur. Darhaqiqat, ana shunday imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishning asosiy kafolati bu albatta, Konstitutsiyamizdir.

Ta’lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biri sifatida Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasida (1948-yil 10-dekabr) asoslab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi respublikamizda fuqarolarning ana shu huquqlarini amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning ta’lim olish huquqini kafolatlovchi ya’na bir qo‘shilgan xalqaro hujjat (1960-yil 14-dekabr) “Ta’lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya) shuni e’tirof etadiki, “ta’lim” iborasi o‘qitishning barcha turlarini va bosqichlarini qamrab oladi va ta’lim olish imkoniga ega bo‘lish, ta’limning darajasi va sifati, shuningdek, ta’lim berish sharoitlarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zi olgan majburiyatlarga amal qilib uzluksiz ta’limning barqaror tizimini yaratdi, shaxsning ta’lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmini mustaxkamlab qo‘ydi. Ta’limning yagona tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- \* maktabgacha ta’lim;
- \* umumiy o‘rta ta’lim;
- \* o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- \* oliy ta’lim;
- \* oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- \* kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- \* maktabdan tashqari ta’lim.

Ta'lim olish huquqining mazmuni shundan iboratki, u O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi uchun ta'lim va tarbiyaning barcha shakllaridan teng foydalanish imkoniyatini beradi.

Ta'lim olish huquqini amalga oshirish quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- \* ta'lim olish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- \* davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining tarmog'ini yaratish;
- \* davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning barcha uchun imkoniyati borligi;
- \* davlat ta'lim muassasalaridagi ta'limning bepulligi;
- \* tayanch ma'lumoti olishning majburiyligi;
- \* ta'limning turli shakllarini qo'llash;
- \* ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy xarakatlarga qaram emasligi.

Davlat faqat ta'lim olish huquqini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratibgina qolmay, mamlakatdagi maktab ishlarini nazorat ham qilib turadi. Fuqarolarning ushbu konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan.

### **1.3. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasidagi qonunchilik va Kadrlar tayyorlash milliy tizimi takomillashuvining huquqiy asoslari.**

Keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga maqsadida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ana shu amaliy ishlarimiz natijasida ta'lim tizimida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham yuksalish va burilish yili bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu fikrimizning isboti sifatida 2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi va 3 ta ijod maktabi ish boshlaganligi hamda 2020-yilda 36 ta yangi maktab qurish, 211 tasi kapital tamirlash hamda 55 ta xususiy maktab tashkil etish rejalashtirilayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida e'tirof etilganligidan ham bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Pedagogik mahorat va malaka darajasiga ega bo'lgan, o'z ishida aniq natijalarga erishgan o'qituvchilarga yuqori maosh to'lash to'lash tizimini joriy etamiz.

Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarini qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur",-deb kelgusida xalq ta'limi tizimida amalga oshirilishi asosiy vazifa sifatida yurtboshimiz tomonidan belgilab berilganligi sohaning xalqimiz ijtimoiy hayoti va yurtimiz taraqqiyotidagi eng muhim yo'nalishlardan biri ekanligidan dalolat bermoqda.



Haqiqatdan ham barcha davrlarda bo'lgani kabi, ta'lim-tarbiya masalasi bugun ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi bejiz emas albatta. Chunki kelajagimiz poydevori albatta ta'lim muassasalarida yaratiladi. Ana shuning uchun ham davlat va hukumat rahbarlari tomonida ta'lim sohasini yuksaltirish, takomillashtirish va sohaga yangiliklarni joriy etishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'lim tizimining rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslarini doimiy takomillashtirib borishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib kelganlar. Jumlada, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining qabul qilinganligi ham ta'lim tizimini yuqori saviyada tashkil etish va zamon ta'lablari asosida kadrlarning tayyorlash tizimini takomillashuvining huquqiy asoslaridandir.

Ta'lim tizimining eng muhim huquqiy asoslaridan biri O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib ushbu qonun 5 bo'lim va 34 moddadan iborat. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Bilim olish huquqi:

1. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
2. Ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
3. Ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
4. Barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
5. Oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligi hamda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmasligi alohida ta'kidlab o'tilgan me'yor mustahkamlab qo'yilgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida, ta'lim muassasasining huquqiy maqomi nazarda tutilgan. Unga asosan, ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda

davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin. Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmualariga hamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 7-moddasida: “Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi”,- deb ko'rsatilgan.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy xisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinishi aloxida qayd etilgan.

#### **O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:**

-davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

-ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

-ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim odatda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi, qisqa muddatli guruxlar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi hamda u bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim odatda umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirish, bilimlarning zarur hajmini berish, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirish, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirish va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlash maqsadini ko'zlaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarning intellektual

qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta‘minlash, o‘quvchining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirish, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta‘minlash hisoblanadi.

Oliy ta‘lim oliy o‘quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta‘lim muassasalarida) ko‘rsatiladi. Oliy ta‘limning asosiy maqsadi oliy ta‘lim yo‘nalishlaridan biri (bakalavriat) yoki aniq mutaxassislik bo‘yicha (magistratura) bo‘yicha puxta bilim berish hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlashga qaratilib, u oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) amalga oshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash OTMlarda, maxsus ta‘lim muassasalarida, Oliy maktablarda, qisqa muddatli o‘quv kurslarida yoki boshqa tashkilotlarda amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, uning asosiy maqsadi kasb bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda yangilashni ta‘minlashga qaratiladi.

Maktabdan tashqari ta‘lim bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish, madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda ko‘rsatiladi. Bu ta‘lim bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, san‘at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunining 19- moddasida: “Akkreditatsiya qilingan ta‘lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi deb ko‘rsatilgan. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjat oilada ta‘lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta‘lim muassasalarining tegishli ta‘lim dasturlari bo‘yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi”.

Tegishli bosqichdagi ta‘limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma‘lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta‘lim muassasalarida ta‘lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo‘yicha ishlash huquqini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasida, ta‘lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish, ya‘ni me‘yoriy hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta‘minlash,

21-moddasida ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanishi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqliligi, 22-moddasida yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi, 23-moddasida esa jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'lishi belgilangan.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 28-moddasida, ta'lim muassasasini boshqarish masalasi yoritib berilgan bo'lib unda ta'lim muassasasini uning rahbari boshqarishi, ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Qonunning 29-moddasida, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib unda:

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

- nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli ekanligi;

- nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshirilishi qayd etilgan. Shuningdek, qonunda:

- Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart ekanligi hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgarligi;

- Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi;

- Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkinligi;

- Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etishlari, xorijiy mamlakatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita

aloqalar o'rnatishi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega ekanligi;

- Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi yoritib berilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining vazifasi to'g'risida ham to'xtalib o'tish tavsiya etiladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va ob'ektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi. Ushbu kodeksning 47-moddasida belgilangan "Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik" uchun belgilangan jazo haqida tinglovchilarga etkazish kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qoidalariga, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilganidir.

### **Kadrlar tayyorlash tizimining isloh qilish omillari:**

1. Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotganligi;

2. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;

3. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

### **Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining vazifalari:**

- ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi me'yoriy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va semenarotga joriy etishdan iborat.

### **Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari:**

-ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

-ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

-ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, halqan'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston halqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa halqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

-iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

### **Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:**

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

- ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;
- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;
- uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish.

**Miliy dasturda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun:**

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
- yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi me'yoriy bazasini yaratish;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va seminarotga joriy etish;
- iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;
- professional trening ilg'or texnologiya va uskunalarni, shuningdek, murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va seminar o'zlashtirib olish zarur.

**Kadrlar tayyorlash Milliy tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:**

1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash;
2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish;
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar;
5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar;
6. Ta'lim tizimini boshqarish;
7. Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
8. Ta'lim tizimini moliyalash;

9. Moddiy-texnika ta'minoti;
10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;
11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish;
12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
13. Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish;
14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish;
15. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi halqaro hamkorlik.

**Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ro'yobga chiqarish quyidagi uch bosqichga bo'lingan edi.**

Birinchi bosqich (1997 - 2001 -yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001 - 2005 -yillar) Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari sifatida shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish belgilangan.

Mazkur andozada shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'yekti sifatida, uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olish orqali barkamol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli va ilmi bo'lishi natijasida Vatan ravnaqiga munosib ulush qo'shadigan, xalq farovonligi yo'lida xizmat qiladigan, millatlararo totuvlik va yurt tinchligini saqlaydigan, dunyo hamjamiyatidagi kasbdoshlari bilan ijtimoiy hamkorlikni amalga oshiradigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat orqali mustaqillik prinsiplariga sodiqligini ta'minlash nazarda tutilgan.

Davlat va jamiyat – uzluksiz ta'lim tizimi oldiga davlat va ijtimoiy buyurtmalarni qo'yish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika bazasini yaxshilash barobarida, kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish, ehtiyojga muvofiq kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlashni amalga oshiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalarga muvofiq malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosi sanalib, ta'limning barcha turlari uchun davlat ta'lim standartlari, ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil



etishning uslubiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash tizimi me'yoriy asoslari va faoliyat ko'rsatish muhitini yaratadi.

Ayni vaqtda mamlakatimizda maktab ta'limi 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining o'rni va ahamiyatini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning modelini amalga oshirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy bosqichga ko'tarishga qaratilgan.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekistonning halqaro maydonda munosib o'rin egallashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini to'la ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublari ishlab chiqilib joriy etilmoqda.

6. Ta'lim va kadrlar tayyorlash borasida ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiya qilishning samarali tizimi yuzaga keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilgan holatlarning barchasi kadrlar tayyorlash milliy modelining puxta o'ylangan, samarali model ekanligini tasdiqlaydi. Milliy modelning semenar qiymatini uning O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotning ta'minlashdagi o'rni va roli bilan belgilash mumkin.

#### **1.4. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining mazmun va mohiyati.**

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda 100 ga yaqin yoshlarga doir qonun hujjatlari qabul qilindi. Yoshlar huquqlariga doir xalqaro huquq me'yorlari esa milliy qonunchiligimizda o'z aksini topdi. 1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 44/25-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan, 1990-yil 2-sentabrdan kuchga kirgan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" shartnoma kuchiga ega bo'lgan xalqaro huquqiy xujjat bo'lib, muqaddima, 3 qism, 54 ta moddadan iborat. Konvensiyaning 1-41 moddalari bolalarning huquq va erkinliklari to'g'risida, 42 – 54 moddalari ishtirokchi davlatlarning majburiyatlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi muntazam ravishda Konvensiya talablari ijrosi bo'yicha Milliy ma'ruzalarini tegishli tartibda BMTning Bola huquqlari qo'mitasiga taqdim etib kelayotir. O'z navbatida BMTning Bola huquqlari

qo‘mitasi tavsiyalari asosida Milliy faoliyat dasturi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinmoqda.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya me‘yorlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik, Oila, Mehnat, Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslarida, “O‘zbekiston Respublikasida Davlat yoshlar siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi “Fuqarolik to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi, “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘plab farmon va qarorlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda respublika Hukumatining bola huquqlarini kafolatlovchi qarorlarida o‘z aksini topgan.

«Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiyasi 1959-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘zda tutilgan tamoyillar va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyalarida O‘zbekistonda bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik maqsadlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirishi hamda mazkur sohada hal qilinishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalarining huquqiy asoslari, maqbul yechimlari o‘z aksini topganligini alohida e‘tirof etish joiz.

**“Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ning prinsiplari:**

**-Bolaga nisbatan har qanday kamsitishlarning oldini olish.** Barcha huquqlar hech qanday istisnosiz barcha bolalarga nisbatan qo‘llaniladi. Davlatning vazifasi – bolani kamsitishning barcha shakllaridan himoyalanganligini ta‘minlash va hamda uning huquqlarini ta‘minlab berish uchun barcha zarur choralarni ko‘rish.

**-Bolaning manfaatlarini har tomonlama yetarli ta‘minlash.** Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda bolaning manfaatlari yaxshiroq ta‘minlanishiga birinchi darajali e‘tibor beriladi. Agar otaona yoki vasiy bu vazifalarni bajara olmasalar, davlat bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g‘amxo‘rlik bilan ta‘minlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi.

**- Bolaning yashab ketish va sog‘lom rivojlanishini kafolatlash.** Har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega va davlat bolaning yashab ketishi va sog‘lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib berish majburiyatini oladi.

**- Bolaning huquqlarini tan olish.** Bola o‘zining fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega, jumladan, bolaga taalluqli har qanday muhokama paytida uning fikri e‘tiborga olinishi shart.

**Bola huquqlarini ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi BMTning:**

1) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;

2) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;  
3) Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya;

4) Irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya va qiynoq va muomala va jazoning shafqatsiz, noinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi boshqa turlari to‘g‘risidagi konvensiyasi kabi boshqa asosiy xalqaro shartnomalariga ham tayanadi.

BMTning oltita asosiy xalqaro hujjatiga qo‘shilgach, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan printsiplari va normalariga muvofiq tarzda bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha muayyan xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi.

Inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asosi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan me‘yorlar va qonunlarga tayanadi. Milliy qonunchilikdagi ustuvor yo‘nalishlardan biri – bu bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha BMT xalqaro konvensiyalari qoidalarini implementatsiya qilishdan iborat bo‘lib, mazkur yo‘nalishda YUNISEF bilan faol hamkorlik olib borilmoqda.

Mamlakatimizda inson huquqlariga oid xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan tamoyillariga tayanib, bola huquqlarini himoya qilish tizimini bosqichma-bosqich isloh etish, bola huquqlariga oid xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga jiddiy e‘tibor qaratildi. Bu borada voyaga yetmaganlarni moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutuvchi muhim islohotlar amalga oshirildi.

2010-yil 30-sentabrda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning amalga kiritilishi bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Ya‘ni ushbu Qonun voyaga yetmaganlarning nazoratsizligini va ular o‘rtasida huquqbuzarliklar kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan kompleks huquqiy choratadbirlar tizimini belgilab berdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan o‘ta muhim umummilliy davlat dasturlari qabul qilindi. Endilikda ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda bolalar va yoshlar masalalari davlat siyosatining asosiy diqqat markazida turganligini mamlakatimizda 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi va 2017-yil 9-sentabrda qabul qilingan “Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining aholisining 40% ni 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 64%ni esa – 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Ana shu

maqsaddan kelib chiqib, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko'p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun 2008-yil 7-yanvarda imzolagan. Qonun matbuotda rasman 2008-yil 8-yanvarda e'lon qilingan va kuchga kirgan. Ushbu qonun 4 bob, 32 moddadan iborat:

I – bob: Umumiy qoidalar (1-6- moddalar);

II – bob: Bola huquqlarining asosiy kafolatlari (7-23- moddalar);

III – bob: Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari (24-29- moddalar);

IV – bob: Yakunlovchi qoidalar (30-32- moddalar);

**Ayniqsa, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning amalga kiritilgani mamlakatimizda bola huquqlariga oid yaxlit, kodifikatsiyalashgan milliy qonunchilik tizimining yaratilishiga huquqiy poydevor vazifasini o'tamoqda.**

Mazkur Qonunning qabul qilinishi, *birinchidan*, bola huquqlariga oid qonun hujjatlarining kodifikatsiya qilinishiga zamin yaratishga, *ikkinchidan*, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida belgilangan bola huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro standartlarga milliy qonunchilikning mosligini ta'minlashga xizmat qiladi, *uchinchidan*, bola huquqlarini himoya qilish mexanizmining oshkora va samarali bo'lishi uchun bola huquqlari himoya qilinishining aniq kafolatlarini belgilab olishga imkoniyat berdi.

Ta'kidlash joizki, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'zbekistonda nafaqat bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlar tartibga solinayotganligining shu bilan birga xalqaro huquq me'yorlarining O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilinayotganligining ham isboti hisoblanadi.

Qonunning 2-bobida "Bola huquqlarining asosiy kafolatlari" to'g'risidagi qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lib, unda jumladan bolaning quyidagi huquqlari:

Bolaning yashash huquqi, individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, himoyaga bo'lgan huquqi, oilaviy muhitga bo'lgan huquqi, g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalanish huquqi, o'z fikrini ifoda etish huquqi, axborot olish huquqi, fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi, xususiy mulkka bo'lgan huquqi, turar joyga bo'lgan huquqlari, mehnat qilish huquqi, dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi, sog'lig'ini saqlash huquqi hamda bilim olish huquqi kafolatlari haqida gap boradi.

Qonunning ahmiyatli jihati shundaki, uning 3-bobida “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari” belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning:

- oila muhitiga bo‘lgan huquqi kafolatlari;
- jamiyatga uyg‘unlashish huquqi kafolatlari;
- turar joyga bo‘lgan huquqlari kafolatlari;
- ijtimoiy yordam olishga bo‘lgan huquqi kafolatlari;
- Nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishga bo‘lgan huquqi kafolatlari;
- ta’lim olish huquqi kafolatlari mustahkamlangan.

Ayniqsa, qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari alohida bobda mustahkamlanganligi O‘zbekistonda kuchli, aytish mumkinki o‘ziga xos ijtimoiy himoya yuritilayotganligining, bunda ayniqsa e’tiborga muhtoj aholi qatlamlari himoyasiga ustuvor ahamiyat berilayotganligining qonun ijodkorligi sohasidagi yana bir karra isboti bo‘ldi. Bu bobda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqlari kafolatlanganligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ahmiyatli jihati shundaki, qonunda bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish so‘nggi chora ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg‘unlashishi huquqi, turar joyga, ijtimoiy yordam olishga bo‘lgan huquqi, nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam va bilim olishga bo‘lgan huquqlari kafolatlari ham bu hujjatda o‘z aksini topgan.

Qonunda tibbiy- psixologik –pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo‘lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalarning ota - onalari o‘z xohish istagiga ko‘ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqib ta’lim (umumta’lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasini tanlashi huquqi kafolatlanganligi bugungi kunda xalqaro tajribada keng qo‘llanilayotgan inklyuziv ta’limga oid normalarning O‘zbekiston milliy qonunchiligidagi amaliy ifodasidan dalolatdir.

### **1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi.**

O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni 2010-yil 29-sentabrda qabul qilingan va 30-sentabrda kuchga kirgan. Ushbu qonun 6 bob va 36 moddadan iborat. Ushbu Qonunning maqsadi voyaga yetmaganlar o‘rtasida

nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**voyaga yetmagan** — o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs;

**voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi** — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan** — voyaga yetmaganing nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

**ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila** — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila;

**nazoratsiz** — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**yakka tartibdagi profilaktika ishi** — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

**qarovsiz** — aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar** — voyaga yetmaganing muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalarni iste‘mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

insonparvarlik;

tizimlilik;

oilani qo'llab-quvvatlash va u bilan o'zaro hamkorlik qilish;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga yakka tartibda yondashish.

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajara borib, ularning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini ta'minlash maqsadida:

ta'lim muassasalarida o'qiyotgan voyaga yetmaganlarning o'qish vaqtida restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, bundan mazkur muassasalarda ta'lim faoliyati yoki ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan tadbir doirasida bo'lishi mustasno;

voyaga yetmaganlarning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishiga, chekishiga yo'l qo'ymaslik;

voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarning restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (dam olish) joylarda tungi vaqtda ulardan birining kuzatuviziz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

### **Ta'limni boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida:**

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga axloq va sog'lom turmush tarzi asoslarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni ishlab chiqadi va ta'lim muassasalarining ish amaliyotiga joriy etadi;

ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarining, shuningdek voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa muassasalarning faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydi

hamda ularning hisobini yuritadi, ularning umumiy o'rta va o'rta maxsus, ta'lim olishiga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

voyaga yetmaganlarga o'z hayot yo'lini va kasb-hunar tanlashida ularning qobiliyati, qiziqishi, moyilligi hamda sog'lig'ining holatiga muvofiq psixologik yordam ko'rsatadi;

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydigan, ularni kompleks tekshiruvdan o'tkazadigan hamda ularning kelgusidagi ta'minoti, tarbiyasi va ta'limi shakllarini belgilash bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydigan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tuzadi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi;

ta'lim muassasalarida ommabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil etilishini hamda voyaga yetmaganlarni ularda qatnashishga jalb etishni ta'minlaydi, voyaga yetmaganlarning bandligi va dam olishini tashkil etishda qatnashadi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hamda boshqa ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

rivojlanishida yoki xulq-atvorida nuqsoni yoxud o'qishida muammolari bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik yordam ko'rsatadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, shuningdek ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoxud muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlaydi, ularni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berishga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

ta'lim muassasalarida ommabop sport seksiyalari, texnik va boshqa to'garaklar, klublar tashkil qiladi hamda voyaga yetmaganlarni ularda qatnashishga jalb etadi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarni aniqlaydi hamda ushbu oilalarga o'z bolalarini ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasida yordam ko'rsatadi;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, ularga axloq va sog'lom turmush tarzi asoslarini singdirishga yo'naltirilgan dasturlar hamda uslublarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlarni ko'radi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalari o'z vakolatlari doirasida:

voyaga yetmaganlarning ota-onasi vafot etgan, ularning ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, ular ota-onalarining ota-onalik huquqi cheklangan, ota-onasi muomalaga layoqatsiz deb topilgan, ota-onasi kasal bo'lgan, ota-onasi uzoq muddat bo'lmagan, ota-onasi bolalarini tarbiyalashdan yoki ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin



tovlagan hollarda, shu jumladan ota-onasi o'z bolalarini ta'lim muassasalaridan, sog'liqni saqlash muassasalaridan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va boshqa muassasalardan olishdan bosh tortgan taqdirda, shuningdek bolalar ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash, ularga ta'lim berish, kelgusida ularni joylashtirish va mustaqil hayotga tayyorlash uchun qabul qiladi;

kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalarning voyaga yetmagan bolalarini, faqat otasi yoki onasi bor bo'lgan voyaga yetmaganlarni ushbu oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun qabul qiladi;

mazkur muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda ishtirok etadi.

Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **1.6. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.**

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib jamiyatda tadbiq etib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 3-oktyabrda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi va 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha 2003-yil 10-sentyabrda qabul qilingan Istanbul harakat rejasiga qo'shilishi, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishda muhim omil bo'ldi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Byudjet va Bojxona kodekslari, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi bir qator qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining 6 ta bob, 34 ta moddadan tashkil topgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni 2017-yilning 3-yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolandi va 4-yanvar

kuni kuchga kirgan bo‘lib, Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda: “Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”,- deb ta’riflanadi.

Qonunda, korrupsiyaga qarshi kurashishning:

-qonuniylik;

-fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

-ochiqlik va shaffoflik;

-tizimlilik;

-davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

-korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

-javobgarlikning muqarrarligi kabi asosiy prinsiplari ko‘rsatilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashdan iborat.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o‘z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radilar.

Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunda, davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-

tadbirlar sirasida davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash kerakligi qayd etib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga ko'ra, davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Bunga amal qilmaslik, qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborot bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuborish va ularning so'rovlariga javob berish huquqiga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralarini ko'radi.

### **1.7. O'zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar.**

O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 36 moddadan iborat qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning yangi tahriri Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 10-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2016-yil 25-avgustda maqullangan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 22-sentyabrda imzolangan.

Barcha korxonalarda, shuningdek ta'lim muassasalarida xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Mehnatni muhofaza qilish talablari Mehnat Kodeksi va "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek texnik standartlar bilan belgilanadi.

Ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi. Qonunning maqsadi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlardan ya'na biri "Majburiy mehnat to'g'risida"gi 29-Konvensiyadir. "Majburiy mehnat to'g'risida"gi 29-Konvensiya (Jeneva, 1930-yil 28-iyun, XMT Bosh konferensiyasining 14-sessiyasida qabul qilingan) O'zbekiston Respublikasi 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilingan.

Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro Mehnat Tashkilotining har bir a'zosi zo'raki yoki majburiy mehnatni qo'llashning barcha shakllarini imkon qadar qisqa muddatda bekor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun "zo'raki yoki majburiy mehnat" atamasi ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi.

Majburiy mehnatni tugatishga qaratilgan xalqaro hujjatlardan ya'na biri, "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi 105-son Konvensiya (1957-yil 25-iyun, Jeneva, XMT tomonidan qabul qilingan) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi 498-I-sonli «Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida»gi qarori bilan ratifikatsiya qilingan va 1997-yil 15-dekabrda kuchga kirgan.

**Mehnat huquqi**-mehnat shartnomasi asosida vujudga keladigan hamda xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek mehnatdan foydalanish sohasi bilan chambarchas bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soladigan keng qamrovli va murakkab huquq sohasidir.

**Mehnat munosabatlari** deb, xodim o'z mehnat qobiliyatiga ko'ra bajaradigan, ish beruvchi esa uning mehnatidan foydalanib, unga haq to'laydigan hamda mehnatning xavfsiz sharoitlarini ta'minlaydigan munosabatlarga aytiladi.

**Mehnat munosabatlarining ishtirokchilari** (sub'yektlari) o'z mehnat huquqlarini amalga oshiruvchi xodimlar va ularni ishga qabul qiluvchi ish beruvchilar (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslar) dir.

**Mehnat munosabatlarining sub'yektlari** bo'lib 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

14 yoki 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onalaridan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

**Mehnat huquqining manbalari:**

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Mehnat kodeksi, mehnat huquqiga doir qonunlar;
- Boshqa qonun osti xujjatlari.

**O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi** 1996-yil 1-apreldan e'tiboran kuchga kirgan.

**Mehnat shartnomasi** – xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibicha bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ xujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Mehnat shartnomalari faqat taraflarning o'zaro roziliklari bilan tuziladi.

**Qonunchilikda mehnat shartnomasi yozma shaklda tuzilishi belgilangan.**

**Mehnat shartnomasi quyidagi muddatlarga tuziladi:**

- Nomuayyan muddatga;
- Besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga;
- Muayyan ishni bajarish muddatiga.

Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari O'zbekiston Respublikasi MKning 97-moddasida ko'rsatilgan:

1. Taraflar kelishuviga ko'ra;
2. Taraflardan birining tashabbusi bilan;
3. Muddatning tugashi bilan;
4. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra;
5. Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra;

6. Yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin.

**Ish vaqti** – xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt.

<b>Ish vaqti muddatlari</b>		
<b>Normal muddat</b>	<b>Qisqartirilgan muddat</b>	<b>To'liqsiz ish muddati</b>
Ish vaqtining normal muddati haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak	16-18 yoshgacha 36 soat, 14-16 yoshgacha 24 soat. I-II-guruh nogironlari 36 soat	35 soat. Noqulay mehnat sharoitida band bo'lgan xodimlar alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi

		xodimlar va 3 yoshgacha bolalari bor odamlarga
--	--	--

**Doimiy vaqti** – xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo‘lgan va o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqtdir.

**Dam olish vaqti turlari:**

- Kunlik dam olish;
- Ish vaqti tugagandan keyingi dam olish;
- Haftalik dam olish;
- Bayram kunlari;
- Ta’tillar;
- Yillik qo‘shimcha ta’tillar.

O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish «**Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida**»gi qonun bilan tartibga solinadi.

**Mehnat nizolari** – mehnat shartnomasini qo‘llanilishi yuzasidan xodimlar bilan ma‘muriyat o‘rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ixtiloflardan iborat.

**Mehnat nizolari komissiyasi** tomonidan ko‘rib chiqiladi. Komissiyaga xodim murojaat etgandan so‘ng 10 kunlik muddat ichida ariza ko‘rib chiqilmasa, xodim sudga murojaat qilishga haqli.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati haqida nima bilasiz?
2. Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunning maqsadi nima?
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bosqichlarini tushuntirib bering?
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining modeli nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Ta‘lim va kadrlar tayyorlash borasida ta‘lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi qanday?
6. Korrupsiyaga qarshi siz qanday kurashyapsiz?
7. Mehnat shartnomasi nima?
8. Mehnat muhofazasi deganda nimani tushunasiz?
9. Ishga qabul qilishda qanday hujjatlar talab qilinadi.
10. Mehnat layoqati deganda nimani tushunasiz?

**2-MAVZU. TA‘LIM-TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-ME‘YORIIY ASOSLARI SIFATIDA QONUN OSTI HUJJATLARI. (2 SOAT AMALIY).**

Ma‘ruza mashg‘ulot ta‘lim texnologiyasi:

<i>Tinglovchilar soni:</i>	<i>Vaqt: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining</i>	<i>Bilimlarni chuqurlashtirish va</i>

<i>shakli ma'ruza mashg'ulot</i>	mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Ma'ruza mashg'ulot rejasi</i>	2.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari. 2.2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
<b><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari sifatida qonun osti hujjatlari.</i></b>	
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;</li> <li>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi;</li> <li>• jamoa bo'lib qo'yilgan vazifani bajarish, tahlil qilish va qaror qabul qilishga shart-sharoit yaratadi;</li> <li>• mustaqil ishlash uchun imkoniyat yaratadi;</li> <li>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruza mashg'uloti rejasi bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;</li> <li>• Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari sifatida qonun osti hujjatlari bilan tanishadi;</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari bilan tanishadi;</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarining mazmun-mohiyati bilan tanishadi.</li> </ul>
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, kichik guruhlarda ishlash, "Yalpi fikriy hujum" va "Arra" interfaol usulilari namoyishi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma material, kompyuter texnologiyasi, slaydlar.
<i>O'qitish shakllari</i>	To'g'ridan-to'g'ri, jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
<i>Monitoring olib borish</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'quv topshiriq.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi:**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>tinglovchi</i>

I-bosqich. Mavzuga kirish. (15 minut)	1.1. O'quv mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar
	1.2. Tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'ladi.	Interfaol usullardan foydalanilgan holda
	1.3. Tinglovchilarning mashg'ulotdagi faolligini aniqlash mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar
	1.4. Mavzu bo'yicha tayyolangan topshiriqlarni tarqatadi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
II-bosqich. Asosiy (55 minut)	2.1. Ma'ruza mashg'ulotining vizual materialini namoyish qiladi. Guruhlarga tarqatma material taqsimlanadi, topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozga tushurib, taqdimotni o'tkazishiga ko'mak beradi, izohlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor qaratadi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Faol qatnashadilar, jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, baxs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar xulosa chiqaradilar, baholaydilar.
	2.2. Guruhlarga " <b>Klaster</b> " interfaol usuli va tarqatma materiallari va topshiriqlar navbatma-navbat berib boriladi.	Guruhlar taqdimot o'tkazadi.
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushurib, taqdimotni o'tkazishda yordam beradi va nihoyasida umumlashtiradi. Baxs-munozaraga kirishish uchun sharoit yaratadi.	Taqdimot o'tkazadilar, g'olib guruhlarni aniqlaydilar. Baholaydilar.
III-bosqich. YAakuniy	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol tinglovchilarni baholash mezonlari orqali	Eshitadi. Aniqlaydi.



bosqich. (10 minut)	rag‘batlantiradi.	
	3.2. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosalar chiqaradi. 3.3. Tinglovchilarga uyga vazifa qilib: Xalq ta‘limining me‘yoriy – huquqiy asosi sifatida qonun hujjatlari. Bola huquqlari kafolatlarining milliy va xalqaro-huquqiy asoslari haqida.	Mustaqil ishlash uchun topshiriq yozib olinadi.

**Tayanch iboralar:** *Ta‘lim, tarbiya, farmon, farmoyish, qaror, kadrlar tayyorlash tizimi, barkamol avlod, xalqaro donorlar, xorijiy investorlar, jamg‘arma, jamoat tashkilotlari, ilmiy-pedagog kadrlar, attestatsiya.*

## **MAVZUNING BAYONI**

### **2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.**

Ta‘lim muassasalarini faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va joriy qonunlar bilan bir qatorda, Prezident farmonlari, farmoyishlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig‘i sifatida respublika hududida majburiy tarzda amal qiluvchi farmonlar, farmoyishlar va qarorlar chiqaradi.

**1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.**

Xalq ta‘limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta‘limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlanganligi asoslab ko‘rsatilgan va quyidagilar:

- joylarda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, umumta‘lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq ta‘limi boshqaruv organlari rolining etarli darajada emasligi;

- umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo'lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o'rinbosarlari o'rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi;

- umumiy o'rta ta'limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida xalq ta'limi bo'limlari va umumta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik darajasining pastligi;

- rahbarlar, o'qituvchilar va umumta'lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi;

- ta'lim sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining etarli darajada emasligi, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi;

- xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me'moriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi ta'kidlandi.

Mazkur qarorda quyidagi vazifalar:

2019-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan tumanlar va shaharlar kesimida tanlash asosida umumta'lim muassasalari faoliyati samaradorligi bo'yicha reytingi tuzilishi;

2019-yil 1-yanvardan boshlab umumta'lim muassasalari xodimlari bo'lgan pensionerlarga, ularning ushbu muassasalardagi faoliyati asosiy ish joyi hisoblangan taqdirda, pensiya to'liq miqdorda to'lanishi;

2019-yil 1-martdan boshlab davlat umumta'lim muassasalariga bolalarni Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilish tartibi bosqichma-bosqich joriy etilish vazifasi belgilab berilgan.

Vazirlikning 2018-yil 1-oktyabrdan boshlab umumta'lim muassasalarining vasiylik kengashlarini tugatish, hamda uning o'rniga tarkibiga muassasa faoliyatiga jiddiy hissa qo'shishga qodir eng faol otaonalar, bitiruvchilar, homiyilar va boshqa shaxslar kiritiladigan, yuridik shaxs maqomisiz umumta'lim muassasalarining kuzatuv kengashlarini tashkil etish to'g'risida bildirgan takliflari ma'qullandi va kengashning quyidagi vazifalari belgilab berildi:

- Vazirlik tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan umumta'lim muassasasi rahbarini saylash, shuningdek, belgilangan tartibda uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;

- umumta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- umumta'lim muassasasi rahbarining muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida hisobotlarini vaqti-vaqti bilan tinglash;

- umumta'lim muassasasi rahbarining taqdimnomasi bo'yicha yillik moliyaviy rejalarni, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va muassasa mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan auksiondagi boshlang'ich narxni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

- o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

- o'quvchilar va ular ota-onalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, umumta'lim muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to'g'risida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish;

- ta'lim muassasasining faoliyatini tashkil etishga taalluqli boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etishdan iborat vazifalar yuklatildi.

**2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori qabul qilindi.**

Mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilayotganligi ta'kidlandi. Amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatayotganligi, xususan:

*birinchidan*, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar etarli darajada samara bermayotganligi;

*ikkinchidan*, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emasligi;

*uchinchidan*, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar ob'ektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining etishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani;

*to'rtinchidan*, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi;

*beshinchidan*, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik etarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning etishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'layotgani;

*oltinchidan*, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning etarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarayotganligi ta'kidlandi.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

Quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'limtarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi:

yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;

pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;

yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash. Belgilansinki, vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning rahbarlari Dasturning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

*Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining dars va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo'yicha hisobotlar va qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish qat'iy taqiqlandi.*

Qarorda, direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan pedagog kadrlarni faoliyatining natijaviyligi asosida rag'batlantirishning shaffof tizimini joriy etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish belgilab berildi.

Shu bilan bir qatorda, hududiy, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan pedagog kadrlarga eng kam ish haqining 5 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda bir martalik pul mukofoti berish tartibini joriy etish, pedagog xodimlarga 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida dastlabki badali 10 foiz bo'lgan ipoteka krediti, shuningdek, «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida pedagog xodimlarning oila a'zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 foiz stavka miqdorida kreditlar berish tartibini ishlab chiqish tartiblari belgilab berildi.

Qarorda quyidagilar taqiqlab qo'yildi:

xalq ta'limi xodimlarini xizmat majburiyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, majburiy mehnatga, shu jumladan, tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari hamda boshqa turdagi ishlarga jalb qilish;

xalq ta'limi xodimlarini ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning bosma nashrlarga majburan obuna bo'lishini tashkil etish;

xalq ta'limi muassasalari faoliyatini qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan asoslarga va o'rnatilgan tartibga rioya etmagan holda tekshirish.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari mazkur talablar buzilgan hollarda tegishli javobgarlikka tortilishi haqida qat'iy ogohlantirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda pedagog xodimlarning huquq va erkinliklarini cheklash holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida

qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan muntazam ravishda nazorat tadbirlarini o'tkazsin hamda aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta'minlash alohida ta'kidlab o'tilgan.

**3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi qabul qilindi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi xalq ta'limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

-O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

-uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

-o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

-xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish va xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

-davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

-xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish kabilar.

Farmonda, 2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida 9 691 ta umumta'lim maktablari (jumladan, ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan 350 ta davlat ixtisoslashtirilgan muassasalari), mavjud shuningdek, 86 ta nodavlat ta'lim muassasasi va «Barkamol avlod» markazlarida 5 540 ta to'g'arak tashkil etilgan. Xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat, alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarning ta'limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasida amalga oshirilmoqda. 19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta bolalar shaharchalari mavjudligi ta'kidlab o'tilgan.

Bundan tashqari farmonda maktablarning 28 foizida qo‘shimcha jihozlashga ehtiyoj mavjud, ishlatilayotgan jihozlarning 50 foizi ma‘nan va jismonan eskirganligi, 3000 dan ortiq umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning sog‘lom ovqatlanishi uchun oshxonalar va bufetlar tashkil etish, umumta‘lim muassasalarining binolarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash bo‘yicha zamonaviy standartlarni joriy etish, 2 907 ta umumta‘lim maktabi qurilish-ta‘mirlash ishlariga muhtoj ekanligiga e‘tibor qaratilgan.

**4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarorida** quyidagilar Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi (keyingi o‘rinlarda Respublika kengashi deb yuritiladi) faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali etkazish;

oila, mahalla, ta‘lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, «mahalla — tuman — viloyat — respublika» prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma‘naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

«Jaholatga qarshi ma‘rifat» g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta‘sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;

tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish;

aholining ijtimoiy-ma‘naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

«Madaniyat va ma‘rifat» telekanalini Markaz, uning hududiy bo‘lim va bo‘linmalari faoliyatini yoritish masalalari bo‘yicha Respublika kengashining bosh axborot hamkori etib belgilash;

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoular, ijtimoiy roliklar, ko‘rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilish tavsiya etilsin.

Markaz, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar ijodiy uyushmasining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga topshiriladigan «Ma’naviyat fidoyisi» ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanishi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Markaz huzurida «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida ta’sis etildi.

***5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4342-son Qaroriga muvofiq:***

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligining Baxt shahridagi o‘g‘il bolalar maxsus kolleji, Qo‘qon shahridagi maxsus engil sanoat kolleji, Samarqand shahridagi 64-sonli o‘g‘il bolalar maktab-internati va Chinoz tumanidagi 5-sonli qiz bolalar maktabinternatining negizida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzurida Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi hamda Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasini (keyingi o‘rinlarda — Respublika o‘quv-tarbiya muassasalari) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi Toshkent viloyati, Chinoz tumani, «Gulzorobod» mahallasi manzilida;

Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani, Baxt shahri «Tadbirkor» mahallasi manzilida joylashtirilsin.

1. Quyidagilar:

Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga;

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga biriktirilsin.

Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga 14 yoshga to‘lgan va 18 yoshdan oshmagan voyaga yetmaganlar joylashtiriladi.

***6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4444-son Qarori.***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5815-son Farmoniga muvofiq:



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining tashkiliy tuzilmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 57 nafardan iborat markaziy apparatining tuzilmasi tasdiqlanishi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligiga O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi. Agentlik direktori uning taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan 3 nafar o‘rinbosarga, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosarga egadir. Agentlik direktori mehnatga haq to‘lash, tibbiy va transport ta’minoti shartlariga ko‘ra vazirga, uning birinchi o‘rinbosari — vazirning birinchi o‘rinbosariga, o‘rinbosarlari — tegishli ravishda vazir o‘rinbosarlariga tenglashtirilgan. Agentlikning shtatlari soni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hududiy organlaridagi 57 ta ishlab chiqarish xodimlari shtat birligini optimallashtirish hisobidan jamlanadi.

Mazkur qaror asosida agentlik direktoriga:

zarur hollarda, Agentlik tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy shtatlari soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish;

Agentlik huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Agentlik xodimlarining qo‘shimcha shtat birliklarini kiritish;

istisno tariqasida, idoraviy bo‘ysunuvdagi tashkilotlarni tashkil etish va ularni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Agentlik huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy va ta’lim muassasalari, xalqaro tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, xorijiy ekspertlarni shartnoma asosida ishga jalb qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning, shuningdek, ular yotoqxonalarining shtat jadvalini tasdiqlash huquqi berilsin.

Agentlik direktori bir oy muddatda Agentlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta’minlash uchun uni zarur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirilishini ta’minlash kabi vazifalar belgilab berilgan.

**7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-son Qarori.**

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar va kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar maktablarining moddiy-texnik ta‘minoti va ta‘lim berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o‘quvchi-yoshlarning ta‘lim olishlari uchun teng shart-sharoitlar yaratish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur qarorda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Qurilish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va tizimida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarning ilg‘or arxitektura yechimlari va energiya tejoychi texnologiyalar asosida barpo etiladigan hamda jihozlanadigan, xalqaro talablar asosida sifatli ta‘lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanishi ta‘kidlab o‘tilgan.

2020-yil 1-martdan boshlab davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash, moliyalashtirish manbalaridan qat‘i nazar, “Zamonaviy maktab”larni qurish va rekonstruksiya qilishning namunaviy loyihalari va jihozlash me‘yorlari asosida amalga oshiriladi.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” davlat unitar korxonasining qo‘shimcha vazifalari etib:

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini “Zamonaviy maktab”ga qo‘yilgan talablar asosida baholash orqali ularga muvofiqlik sertifikatini berish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini baholash jarayoniga tegishli davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb etish;

zamonaviy va shaffof baholash uslublarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or tajribani ommalashtirish;

“Zamonaviy maktab” talablari asosida baholash bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari reytingini aniqlashning elektron platformasini ishlab chiqish va uning yuritilishini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini “Zamonaviy maktab” talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabilar belgilandi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mir qilish jarayonida sifatsiz bajarilgan, belgilangan texnik talablarga mos kelmagan holda bajarilgan hamda ortiqcha hajmda ko‘rsatilgan qurilish-montaj ishlari bo‘yicha undirilgan summalarning 90 foizi tegishli obyektlardagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun bo‘ysunuviga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining maxsus shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, 10 foizi esa “Injining kompaniyasi” DUKning maxsus hisob raqamiga xodimlarni rag‘batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlariga yo‘naltiriladi.

## **2.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan oliy va o‘rta mahsus ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib ular jumlasiga kiradigan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlarini ko‘rib chiqamiz.

### ***1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori.***

Umumiy o‘rta ta’limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’limning o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzviy aloqadorligini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2017-yil 15-mart kuni 140-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqladi. Ushbu nizom 10 ta bob, 85 banddan iborat.

1-bob. Umumiy qoidalar (1-7 modda)

2-bob. Umumiy o‘rta ta’limning maqsadi va vazifalari (8-10 modda)

3-bob. Umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish (11-23 modda)

4-bob. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni (24-38 modda)

5-bob. Umumta’lim muassasasiga o‘qishga qabul qilish (39-49 modda)

6-bob. O‘quvchilar sog‘lig‘ini muhofaza qilish (50-54 modda)

7-bob. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish (55-59 modda)

8-bob. Umumiy o‘rta ta’limni boshqarish (60-69 modda)

9-bob. Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti (70-80 modda)

10-bob. Yakuniy qoidalar (81-85 modda).

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish va umumiy o'rta ta'lim faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi va ushbu Nizom talablari barcha umumta'lim muassasalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Umumta'lim muassasasining ustavi belgilangan tartibda tasdiqlanadi va umumta'lim muassasasi mahalliy davlat hokimiyati organida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Umumta'lim muassasalarining namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

**2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori.**

"Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan:

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti;

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti; Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari;

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlarining davlat namunalari;

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun umumta'lim fanlaridan o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo'yiladigan umumiy talablar zarur me'yoriy hujjatlar bilan tasdiqlandi.

Ushbu me'yoriy hujjat asosida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari 2017-2018-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi zimmasiga umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quv dasturlarini yangidan ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlab, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga etkazib berish vazifasi berildi.

Yaratilayotgan o'quv-metodik majmualar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, rasmlarga boy, zamonaviy matbaa talablariga javob beradigan shakllarda chop etilishiga e'tibor qaratilishi ahamiyatlidir.

*Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:*

- umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

*Davlat ta'lim standartini quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:*

- o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;
- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;
- o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

*Davlat ta'lim standartini quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:*

- umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;
- umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;
- umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;
- baholash tizimi.

Umumiy oʻrta taʼlimning malaka talablari umumtaʼlim fanlari boʻyicha taʼlim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, oʻquv yuklamalari hajmiga hamda taʼlim sifatiga qoʻyiladigan talablardan iborat boʻlib, u quyidagilardan tashkil topadi:

**bilim** — oʻrganilgan maʼlumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

**koʻnikma** — oʻrganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qoʻllay olish; malaka — oʻrganilgan bilim va shakllangan koʻnikmalarni notanish vaziyatlarda qoʻllay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

**kompetensiya** — mavjud bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati.

#### ***4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 349-sonli Qarori.***

Oʻzbekiston Respublikasida inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida majburiy mehnatning oldini olish va unga toʻliq barham berishga doir aniq hamda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi haqida gapirilgan, unda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan faol hamkorlik qilinayotganligi taʼkidlangan boʻlib, ushbu tashkilotning 14 ta, jumladan, 8 ta asosiy konvensiyasi, shuningdek, bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashishga doir konvensiyasi ratifikatsiya qilinganligi aytilgan. Respublikada xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Konvensiyalarini hayotga tatbiq etishga doir milliy harakatlar rejasi qabul qilindi, mazmuni va mohiyati XMT metodologiyasi boʻyicha milliy mehnat qonunchiligini va mehnat bozorini rivojlantirishga, bandlikni, ijtimoiy muhofazani va aholi bilan muloqotni taʼminlashga yoʻnaltirilgan munosib mehnat boʻyicha mamlakat dasturi bajarilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro mehnat standartlariga muvofiq fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini taʼminlashga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish toʻgʻrisida” 2017- yil 4-oktabrdagi SQ-231-III-son qarori bilan bolalar mehnati va majburiy mehnatdan biron-bir shaklda foydalanishning oldini olish va bunga yoʻl qoʻymaslik boʻyicha ushbu yoʻnalishda kompleks tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan parlament nazorati instituti joriy etilgan.

Mansabdor shaxslarning xizmat mavqeini suiisteʼmol qilish, yuqorida qayd etilgan shaxslarni qoʻrqitish, ularga nisbatan haqoratli soʻzlarni va hattoki, kuch ishlatish holatlari ham qayd etilayotganligi, hamda ushbu holat bunday ishlarni bajarishga majburlash davomida mazkur ishlarga jalb etilgan shaxslarning jarohat olishiga va ayrim hollarda halok boʻlishiga sabab boʻlayotgan koʻngilsiz voqealar roʻy berayotgani bilan yanada murakkablashayotganligi haqida aytiladi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan hasharlar quyidagi shartlarga qat'iy rioya etilgan holda faqat ixtiyoriy tarzda tashkil etiladi va o'tkaziladi deyildi:

-umumxalq hasharini o'tkazish to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjati yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori mavjud bo'lganda;

- hasharlar unda ishtirok etadigan shaxslar mehnat qiladigan tegishli tashkilot hududida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik normalariga qat'iy rioya etilgan holda o'tkazilishi;

-hasharlar doirasida barcha boshqa turdagi jamoat ishlari, shu jumladan qurilish-ta'mirlash va qishloq xo'jaligi ishlariga majburiy jalb etishga qat'iy yo'l qo'yilmagan holda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, ish o'rinlarini tartibga keltirish ishlari amalga oshirilishi;

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faqat tegishli mahalla hududida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, bolalar va sport maydonlarini jihozlash, moddiy-madaniy meros ob'ektlarini zarur holatda saqlash, qabristonlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash hamda zarur holatda saqlash ishlarida aholining ixtiyoriy ishtirok etishini tashkil etishi belgilab qo'yildi.

Avtomobil yo'llari, harakatlanish tig'iz bo'lgan ko'chalar, suv ob'ektlari, qirg'oqbo'yi hududlar va zonalar, qurilish maydonlari, bino va inshootlar tomlari, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari, shuningdek, insonlarning hayotiga yoki sog'lig'iga xavf tug'ilishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa joylarda ixtiyoriy tashabbus bilan hasharlar va boshqa ishlarni o'tkazish taqiqlandi.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga:

jamoat shartnomasi va mehnat to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, xususan, majburiy mehnatdan foydalanishning oldini olish borasida tashkilotlardagi kasaba uyushmalari boshlang'ich bo'g'inlarining javobgarlik choralarini kuchaytirish;

majburiy mehnat holatlari aniqlangan taqdirda ular to'g'risida prokuratura organlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat huquq inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalariga zudlik bilan ma'lum qilish;

boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikda ushbu sohadagi jamoatchilik nazoratini faollashtirish tavsiya etildi.

***5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 701-son Qarori.***

O‘zbekiston rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama manfaatli o‘zaro hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishi jarayonida istiqbolli yoshlarni tayyorlash, yosh avlodning xorijiy tillarni, xususan, nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillarini chuqur o‘rganishi uchun shart-sharoitlar yaratish, intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda mamlakatning turistik jihatdan nufuzini yuksaltirishga qodir bo‘lgan avlodni kamol toptirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasalarini (keyingi o‘rinlarda ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillarining chuqur o‘rganilishini tashkil etish;

nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillarini o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillarini chuqur o‘rganish uchun davlat ta’lim standartlaridan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etish;

nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillaridan mahoratli o‘qituvchilarni jalb etgan holda ta’lim sifatini oshirishga erishish;

o‘quvchilarning iqtidori va iste’dodini aniqlash hamda kamol toptirish bo‘yicha ularni milliy va xalqaro fan olimpiadalari, ko‘rik-tanlovlar va boshqa tadbirlarda munosib ishtirok etishga tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

2020-yil 1-martga qadar nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tili fanlariga ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalarining o‘quv rejasini ishlab chiqsin;

Germaniyaning Klett nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan nemis tili darsliklari majmuasining xalq ta’limi tizimida 2018-2019-o‘quv yilida tajriba-sinovdan o‘tkazilganligini inobatga olgan holda umumta’lim muassasalariga ushbu



darsliklarni xarid qilish bo'yicha loyiha takliflarini ishlab chiqib, xalqaro grantlarni, chet el investorlarini hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'larini jalb qilish choralarini ko'rsin;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019-yil 5-apreldagi 281-son qarori talablariga muvofiq ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tillari bo'yicha muqobil darsliklardan foydalanishni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etsin;

ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalariga yapon tili bo'yicha o'qituvchilarni jalb qilish, ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida yapon tili fani o'qituvchilariga lavozim maoshining ellik foizigacha miqdorida qo'shimcha haq to'lash tizimini joriy etsin;

yapon tili fani o'qituvchilarining oylik maoshlari bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2019-yil 22-apreldagi 344-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan xalq ta'limi muassasalarining byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobiga, zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobiga qoplanishi ta'kidlab o'tilgan.

Bundan tashqari qarorda, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha «El-yurt umidi» jamg'armasi 2020-2021-o'quv yilidan boshlab Jamg'arma mablag'lari hisobiga nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tili o'qituvchilarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborish choralarini ko'rsinlar belgilab berilgan.

Mazkur qarorda, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab:

xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarida ota-onalarning va o'quvchilarning xohish-istaklaridan kelib chiqib nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys yoki xitoy tili ikkinchi til sifatida joriy etish;

ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida o'quvchilarga yanada chuqurroq bilim berish, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi va o'qitish metodikasini singdirish maqsadida ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalariga xorijiy mutaxassislarni fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ishga qabul qilishga ruxsat berish;

ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilariga xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi vakolatxonalarini bilan birgalikda

o‘tkazilgan tanlovlar natijalariga ko‘ra nemis tilini xorijiy til sifatida bilish darajasi bo‘yicha Germaniyaning Test DAF (Test Deutsch als Fremdsprache), fransuz tilidan xalqaro imtihon natijalari bo‘yicha Fransiyaning Test DELF (Diplome d’Études en Langue Française — fransuz tilini o‘rganganligi to‘g‘risida) va DALF (Diplome Approfondi de Langue Française — fransuz tilini chuqur o‘rganganligi to‘g‘risida) diplomlarini, Japanese Language Proficiency Test Certificate (JLPT Certificate — yapon tilini chuqur o‘rganganligi to‘g‘risida) sertifikatini berish amaliyoti joriy etish;

oliy ta‘lim muassasalarining xorijiy filologiya yo‘nalishlarini tamomlagan mutaxassislarni 2020-2021 o‘quv yili davomida nemis, fransuz, ispan, yapon, koreys va xitoy tili mutaxassisligi bo‘yicha, istisno tariqasida, bepul qayta tayyorlash amalga oshirilishi kabi muhim vazifalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

***6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 823-sonli Qarori.***

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibini belgilaydi.

Jamg‘arma umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlariga muvofiq o‘quvchilarga ta‘lim beradigan barcha tur va nomdagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari hamda maktab-internatlarda tashkil etiladi.

Jamg‘arma umumta‘lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishni rag‘batlantirish, pedagog, psixolog va kutubxon xodimlariga oylik ustama belgilash, umumta‘lim muassasalari xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam berish, pedagog xodimlarning kasb mahorati va malakasini oshirishini rag‘batlantirishni kuchaytirish maqsadida tashkil etiladi.

Mazkur jamg‘armaning vazifalari quyidagilardan:

umumta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan pedagog, psixolog va kutubxon xodimlarining (ular umumiy sonining ko‘pi bilan 50 foizi) bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash yo‘li bilan ularni moddiy rag‘batlantirish;

umumta‘lim muassasalari xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam berish;

tejalgan mablag‘lar mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu mablag‘lar hisobidan xodimlarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi bo‘yicha to‘lanmagan nafaqalarni moliyalashtirish kabilardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida belgilangan tartibda nazarda tutiladigan byudjet mablag‘lari Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari hisoblanadi.

Jamg‘arma umumta‘lim muassasasi mehnatga haq to‘lash fondining 15 foizi miqdorida tashkil etiladi.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ustamalar hamda boshqa turdagi rag‘batlantirish bilan bog‘liq to‘lovlar belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan xodimlarga ish haqi to‘lash uchun mablag‘larni moliyalashtirish bilan bir vaqtda moliyalashtiradi.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tayinlangan ustamalar, moddiy yordam va mukofotlar summasi umumta‘lim muassasasining mehnatga haq to‘lash fondiga kiritiladi. Jamg‘arma hisobidan olingan daromadlarga qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinadi.

Pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar tarbiyaviy jarayonning amalga oshirilish sifati va samaradorligiga, sinfdan tashqari ishlarga hamda o‘quvchilarni insonparvarlik va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga, tegishli sinflar va o‘quv fanlari uchun tasdiqlangan umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlarida nazarda tutilgan bilimlar va ko‘nikmalar to‘liq hajmining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirib olinishi darajasiga va o‘quv jarayoniga qo‘shilgan aniq hissa, o‘qitishning yuqori samaradorligi va sifati uchun 40 foizgacha miqdorda belgilanadi.

Pedagog xodimlarning faoliyatini baholash mezonlari asosida to‘plagan umumiy ballari bo‘yicha ularga quyidagi miqdorlarda ustama haq belgilanadi:

65 — 70 ball to‘plasa — 10 foiz;

71 — 75-ball to‘plasa — 15 foiz;

76 — 80 ball to‘plasa — 20 foiz;

81 — 85 ball to‘plasa — 25 foiz;

86 — 90 ball to‘plasa — 30 foiz;

91 — 95 ball to‘plasa — 35 foiz;

96 — 100 ball to‘plasa — 40 foiz.

Umumta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalariga Jamg‘arma hisobidan har oylik ustamalar yangi o‘quv yili uchun o‘tgan o‘quv yili yakunlari bo‘yicha belgilanadi.

Kutubxona xodimlarining faoliyatini baholash mezonlari asosida to‘plagan umumiy ballari bo‘yicha ularga quyidagi miqdorlarda ustama haq belgilanadi:

65 — 75 ball to‘plasa — 10 foiz;

76 — 85-ball to'plama — 15 foiz;

86 — 100 ball to'plama — 20 foiz;

Umumta'lim muassasalari kutubxona xodimlarining bazaviy tarif stavkalariga Jamg'arma hisobidan har oylik ustamalar yangi o'quv yili uchun o'tgan o'quv yili yakunlari bo'yicha belgilanadi.

Psixolog xodimlarining faoliyatini baholash mezonlari asosida to'plangan umumiy ballari bo'yicha ularga quyidagi miqdorlarda ustama haq belgilanadi:

65 — 75 ball to'plama — 10 foiz;

76 — 85-ball to'plama — 15 foiz;

86 — 100 ball to'plama — 20 foiz;

Umumta'lim muassasalari psixolog xodimlarining bazaviy tarif stavkalariga Jamg'arma hisobidan har oylik ustamalar yangi o'quv yili uchun o'tgan o'quv yili yakunlari bo'yicha belgilanadi.

Umumta'lim muassasasining pedagog xodimlari faoliyati davomida yuqori natijalar ko'rsatgan taqdirda, mazkur Nizomning 21-bandida ko'rsatilgan ustamalar o'rniga bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 100 foiz bo'lgan ustama haq olishlari mumkin.

Har oylik bazaviy tarif stavkalariga nisbatan 100 foizlik ustama haq olishga da'vogar pedagog xodimlar ro'yxati Ishchi guruhning qarori asosida shakllantiriladi hamda umumta'lim muassasasi direktori tomonidan tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limiga 1-aprelga qadar taqdim etiladi.

100 foizlik ustama haq olishga da'vogar pedagog xodimlarning mashg'ulot olib boradigan fanlari bo'yicha o'quvchilarining bilimlari xalqaro baholash dasturlari integratsiya qilingan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan tayyorlangan nazorat materiallari asosida o'tkaziladigan sinovlar natijalariga ko'ra, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan tashqi monitoring tarzida baholanadi hamda 100 foizlik ustama haq olish huquqini qo'lga kiritgan pedagog xodimlar (ustama olish davrida) shartli ravishda «A'lo darajali» pedagoglar deb yuritiladi.

Da'vogar o'qituvchi dars mashg'ulotlari olib boradigan sinflarning 30 foizi tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarining tashqi monitoring jarayonida qamrab olinishi shart.

Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarining tashqi monitoring natijalariga ko'ra, o'quvchilar 80 foizdan kam bo'lmagan ko'rsatkichga ega bo'lganda, Ishchi guruh tomonidan o'qituvchiga yangi o'quv yilidan boshlab bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 100 foiz ustama haq belgilanadi.

Umumta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarga o'z vaqtida metodik yordamni tashkil etishda faolligi uchun

Ishchi guruhning qarori bilan (mazkur Nizomning 4-bandida belgilangan o'qituvchilar umumiy sonining 50 foizidan tashqari) umumta'lim muassasasining fan yo'nalishlari bo'yicha uslubiy birlashmalari rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga 5 foiz har oylik ustama haq belgilanishi mumkin.

Bunda fan yo'nalishlari bo'yicha uslubiy birlashma rahbariga o'qituvchiligi bilan birga qo'shib hisoblaganda Jamg'arma hisobidan beriladigan bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustama haq 40 (yoki 100) foizdan oshmasligi lozim.

Umumta'lim muassasasining rahbar xodimlariga (direktorning o'quv ishlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari) va o'z faoliyatini soatbay haq to'lash asosida amalga oshiradigan o'qituvchilarga mazkur har oylik ustamalar belgilanmaydi.

Umumta'lim muassasalari pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarining bazaviy tarif stavkalariga Jamg'arma hisobidan har oylik ustamalar har yili 1-iyulga qadar belgilanadi va o'quv yilining yarim yillik yakunlari bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini umumta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasi va o'z faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga erishganligi uchun hamda respublikamizda nishonlanadigan bayram sanalari munosabati bilan ularga kalendar yili davomida jami ikki lavozim maoshigacha miqdorda mukofot puli to'lash yo'li bilan moddiy rag'batlantiriladi.

Ushbu to'lovlar Jamg'arma mablag'lari doirasidan kelib chiqqan holda, yiliga bir necha marotaba amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro olimpiadalar g'oliblarini tayyorlagan o'qituvchilar va ta'lim muassasasi direktorlariga navbatdagi o'quv yili uchun Jamg'arma mablag'lari hisobidan oltin, kumush va bronza medallari bo'yicha tegishincha qo'shimcha 200, 175 va 150 foizlik ustama haq to'lanadi.

Ishchi guruh o'qituvchiga o'quvchilarining xalqaro olimpiadalaridagi natijalari uchun ustama belgilashda, xalqaro olimpiadalarning sovrindorligini tasdiqlovchi diplom (sertifikat) asosida qaror qabul qiladi.

Umumta'lim muassasalari xodimlariga moddiy yordam ularning murojaatiga ko'ra yoki umumta'lim muassasasi kasaba uyushmasi tashkilotining tashabbusi bo'yicha favqulodda hollarda ko'rsatiladi (yaqin qarindoshi vafot etganda, og'ir jarohat olinganda, og'ir kasallikka chalinganda, tabiiy ofatdan zarar ko'rilganda).

Umumta'lim muassasasi rahbariga Jamg'arma mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish yuqori turuvchi tashkilot tavsiyasi asosida berilishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilasiz?

2. Ixtisoslashtirilgan maktablar nima maqsadda tashkil etildi?
3. O‘zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan Oliy va o‘rta mahsus ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan qanday me’yoriy hujjatlar qabul qilingan?
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 140-son qarori nima haqda?
5. Darsliklarga qanday talablar qo‘yilgan va kim buning uchun mas’ul etib belgilangan?
6. Attestatsiyaning o‘tkazilish tartibi qanday amalga oshiriladi?
7. Umumta’lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi qanday amalga oshiriladi?

**3-Mavzu: Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari va qarorlarida ta’lim-tarbiya masalalari. (2 soat nazariy)**

Ma’ruza mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi:

<i>Tinglovchilar soni:</i>	<i>Vaqt: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli ma’ruza mashg‘ulot</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot
<i>Ma’ruza mashg‘ulot rejasi</i>	3.1. Umumiy o‘rta ta’lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish. 3.2. Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari, yo‘riqnomalari va qarorlarining mazmun-mohiyati.
<b><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari va qarorlarida ta’lim-tarbiya masalalari.</i></b>	
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi;</li> <li>• to‘g‘ridan-to‘g‘ri va jamoa bo‘lib vazifani bajarish va qaror qabul qilishga shart-sharoit yaratadi;</li> <li>• mustaqil ishlash uchun imkoniyat yaratadi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• nazariy mashg‘ulot rejasi bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko‘radilar;</li> <li>• Xalq ta’limi vazirligining me’yoriy-huquqiy hujjatlari bilan tanishadilar;</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining me’yoriy-huquqiy hujjatlaridagi ta’lim sohasiga oid masalalar borasida bilimga ega bo‘ladilar;</li> <li>• Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari, yo‘riqnomalari va qarorlari haqida ma’lumotga</li> </ul>

• mantiqiy xulosa chiqarishga ko‘mak beradi.	ega bo‘ladilar.
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, kichik guruhlarda ishlash, “Qanday” grafik organayzer va “INSERT” interfaol usulilari namoyishi.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Tarqatma material, kompyuter texnologiyasi, slaydlar.
<i>O‘qitish shakllari</i>	To‘g‘ridan-to‘g‘ri, jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta‘minlangan, o‘qi-tish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring olib borish</i>	Kuzatish, og‘zaki nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘quv topshiriq.

**Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi:**

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Tinglovchi</i>
I-bosqich. Mavzuga kirish. (15 minut)	1.1. O‘quv mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va faoliyati natijalarini aytadi. Ta’lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi.	Tinglaydilar
	1.2. Tinglovchilarni kichik guruhlariga bo‘ladi.	Interfaol usullardan foydalanilgan holda
	1.3. Tinglovchilarning mashg‘ulotdagi faolligini aniqlash mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar
	1.4. Mavzu bo‘yicha tayyolangan topshiriqlarni tarqatadi.	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
II-bosqich. Asosiy (55 minut)	2.1. Ma’ruza mashg‘ulotining vizual materialini namoyish qiladi. Guruhlariga tarqatma material taqsimlanadi. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog‘ozga tushurib, taqdimotni o‘tkazishiga ko‘mak beradi, izohlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor qaratadi.	Taqdimotini o‘tkazadilar, baxs-munozara yuritadilar, qo‘shimchalar qiladilar xulosa chiqaradilar, baholaydilar.
	2.2. Guruhlarga <b>“To‘rtinchisi</b>	Guruhlar

	<b>ortiqcha</b> ” interfaol usuli va tarqatma materiallari va topshiriqlar navbatma-navbat berib boriladi.	taqdimot o‘tkazadi.
	2.3.Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog‘ozlarga tushurib, taqdimotni o‘tkazadilar. Baxs-munozaraga kirishishuchun sharoit yaratadi.	Taqdimot qiladilar va g‘oliblar guruhlar rag‘batlantiriladi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol tinglovchilarni rag‘batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosalar chiqaradi. 3.3.Tinglovchilarga “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining me’yoriy-huquqiy hujjatlarida ta’lim - tarbiya masalalari” mavzusi uyga vazifa qilib beriladi.	Mustaqil ishlash uchun topshiriq yozib olinadi.

**Tayanch iboralar:** *xalq ta’limi, qaror, buyruqlar, eksternat, mehnat munosabatlari, inspeksiya, mezonlar, kuztuv kengashir, umumiy o‘rta ta’lim, muassasa.*

### **3.1. Umumiy o‘rta ta’lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish.**

Ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish masalasida bir ahamiyatli hujjatga e’tibor bersak, bu Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.<sup>3</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta’limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

<sup>3</sup> Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 997-сонли Қарори.



The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev pedagoglarning oylik maoshini, jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

“Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi. Maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim tizimlari bilan uzviylikni ta'minlashga ham e'tibor berish kerak”,- dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Umumta'lim maktablari direktorlari va o'rinbosarlariga bo'lgan talabni qayta ko'rib chiqish, bu lavozimga haqiqiy boshqaruvchilik – menejerlik qobiliyatiga ega shaxslarni tayinlash, ma'naviy-ma'rifiy va o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari mas'uliyatini keskin oshirish kerakligi qayd etildi.

Maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini sifatli bajarish uchun xalq ta'limi tizimida maxsus injiniring kompaniyasi tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Umumiy o'rta ta'limning maqsadi ishtirokchilarni madaniy va maishiy, xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan fan asoslarining tizimli bilimlari, mahorat va malaka bilan qurollantirishdan hamda maxsus ta'lim olish (kasb-hunar, texnik, o'rta, oliy) imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

O'zbekistonda majburiy, bepul, muddati 11 yildan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim mavjud bo'lib, u boshlang'ich (1-4- maktab sinflari) va o'rta (5-11- maktab sinflari) ta'limga bo'lingan.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim va malakaning, savodxonlik asoslarining shakllantirilishiga yo'naltirilgan. Birinchi sinfga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taalluqli hisoblanadi. Bu maktab yoshiga yetgan barcha bolalar umumiy yoki maxsus (nogiron bolalar va rivojlanishdan orqada qolgan bolalar) boshlang'ich maktabga borishlarini bildiradi. Bola boshlang'ich maktabni tugatar ekan, u o'qish, yozish

va hisoblash mahoratiga ega bo'lishi kerak. O'quvchiga nazariy fikrlash elementlari, o'rgatilgan harakatlarni boshqarish mahorati singdirib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim kerakli bilim hajmi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tashkiliy mahorat va amaliy tajriba poydevorini qo'yib, boshlang'ich professional yo'nalishni va ta'limning keyingi pog'onasini tanlashda ko'maklashadi.

Umumiy o'rta ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumiy o'rta ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2017-yil 15-mart kuni 140-sonli "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi nizomni tasdiqladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish va umumiy o'rta ta'lim faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi va ushbu Nizom talablari barcha umumta'lim muassasalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Nizomga ko'ra, umumta'lim muassasalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, shuningdek o'z ustavlariga amal qiladi.

Umumta'lim muassasasi yuridik shaxs hisoblanib, o'z ustaviga, mustaqil balansiga, shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga (davlat ta'lim muassasalari uchun), bank hisob raqamlariga, o'z nomi ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhriga, shtampga va blankalarga ega bo'ladi. Umumta'lim muassasasining ustavi belgilangan tartibda tasdiqlanadi va umumta'lim muassasasi mahalliy davlat hokimiyati organida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Umumta'lim muassasalarining namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat umumta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim olish bepul amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Umumta'lim muassasasida ta'lim olish tilini tanlash O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshirilishi ham ushbu Nizomda o'z aksini topgan.

Ta'lim sohasi yangiliklarni joriy qilish, tajriba almashish yo'li bilan takomillashib boradi. Ta'limda metodik hizmat ko'rsatish-ta'lim taraqqiyotining omilidir. O'qituvchi izlanuvchan bo'lmog'i kerak. Chunki o'qituvchi ikki marta o'qish demakdir. O'qituvchiga uzluksiz metodik hizmat ko'rsatish davr talabi.

O`qituvchiga metodik xizmat ham uzluksiz bo`ladi. Buning uchun xalq ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markazi imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Mamlakatimizda yettita ta'lim turidan iborat, bir-biri bilan chambarchas, ketma-ketlikda, izchil va uzviy bog`langan, yaxlit uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa, o`qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o`quvchilarni Vatanimizni sevadigan, o`z bilimi va iste'dodiga suyanadigan hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ravishda puxta bilim oladigan, O`zbekistonning qudratli davlat bo`lishiga o`z hissasini qo`shadigan, har tomonlama barkamol, sog`lom qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar, eng avvalo samarali darslar orqali amalga oshiriladi.

Samarali dars o`qituvchining umumiy tayyorgarligi orqali, umumiy tayyorgarlik esa uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga asoslanadi.

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, ta'lim mazmuni va samaradorligini oshirish, o`quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari milliy ta'lim tizimiga joriy etilib, chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlari va o`quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasiga asoslangan holda, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari va o`quv dasturlari loyihalari tayyorlanib amaliyotga joriy etishda Xalq ta'limi vazirligining ham o`z vakolati va shu vakolat doirasida qabul qilingan vazirlikning buyruqlari, yo`riqnomalari va qarorlarining ahamiyati kattadir.

### **3.2. Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, yo`riqnomalari va qarorlarining mazmun-mohiyati.**

Ta'lim muasasalarini faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va joriy qonunlar bilan bir qatorda, Prezident farmonlari, farmoyishlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan bir qatorda Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari va qarorlari ham alohida ahamiyatga ega. Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o`sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishda, tizimda o`quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishda Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari va qarorlari muhim huquqiy asoslardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmonida: "Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi",-deb ta'kidlangan<sup>4</sup>.

Ta'lim tizimining yanada sifat samaradorligini oshirishning muhim jihatlaridan biri, sohaga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'limning innovatsion shakllarini joriy etishdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan ushbu farmonda ta'lim tizimiga, ayniqsa xalq ta'limi tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llash zarur ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

***1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Eksternat to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2018 yil 15 noyabrdagi 13-mh-son buyrug'i.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-oktabrdagi 789-son «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan beriladigan tasdiqlovchi hujjatlar turlarini tubdan qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2015-yil 13-apreldagi 9-mh-son buyrug'i, 2015-yil 11-mayda tasdiqlangan Eksternat to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritildi.

Eksternat to'g'risidagi nizomga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi:

1. Muqaddimadagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 203-sonli «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi qarori» degan so'zlar «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori» degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«5. Attestatsiyada umumiy o'rta ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standarti asosida 9-sinf doirasida mustaqil o'zlashtirgan va tegishli yilda 16 yoshga

---

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni. 2018-yil 5-sentabr.

to'ladigan hamda undan katta yoshdagi fuqarolar, umumiy o'rta ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standarti asosida 11-sinf doirasida mustaqil o'zlashtirgan va tegishli yilda 18 yoshga to'ladigan hamda undan katta yoshdagi fuqarolar qatnashishi mumkin.».

3. Quyidagi mazmundagi 5<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

«5<sup>1</sup>. Umumiy o'rta ma'lumot to'g'risida shahodatnomaga ega fuqarolar 11-sinf doirasida attestatsiyadan o'tkaziladi.

Ekstern bir vaqtning o'zida 9-sinf va 11-sinf doirasida attestatsiyadan o'tkazilmaydi.».

4. 8-bandning beshinchi xatboshisidan «eksternning yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan ma'lumotnoma» degan so'zlar chiqarib tashlansin.

5. 15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«15. Ekstern 9 va 11-sinflardagi baholar (o'zlashtirish) tabeliga asosan attestatsiya o'tkazilmaydigan fanlardan ijobiy baholangan bo'lsa, ushbu fanlardan attestatsiyadan ozod etiladi.».

6. 16-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«16. Eksternning 9 va 11-sinflardagi baholar (o'zlashtirish) tabeli bo'lmasa, 9 va 11-sinfda o'qitiladigan fanlardan imtihon topshiradi, «Chizmachilik», «Tasviriy san'at», «Musiqqa», «Texnologiya», «Jismoniy tarbiya» fanlari bundan mustasno.» deb ko'rsatilgan.

***2.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2018-yil 27-iyul "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 9-mh-son Qarori.***

Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda 275-son "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibini belgilaydi.

1. Ish reja umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasidan (tarifikatsiya bo'yicha ajratilgan dars soatlaridan) iborat.

2. Pedagog xodimlar uchun dars soatlarining tarifikatsiyasi umumiy yillik ish yuklamasida belgilangan 1548 soat (yillik 43 hafta, haftalik 36 soat, kunlik 6 soat) hisobidan amalga oshiriladi.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasasining pedagog xodimlari uchun bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi quyidagicha belgilanadi:

1-4-sinflarda haftasiga 18 soat;

5-11-sinflarda haftasiga 20 soat.

4. Ish rejani shakllantirish uchun umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasi hisoblab chiqariladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasi quyidagicha hisoblab chiqiladi:

1-4-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini 1 koeffitsiyentga ko'paytirish orqali, ya'ni:

$$18 \cdot 1 = 18 + 18 = 36 \cdot 4,3 (\text{hafta}) = 154,8 \cdot 43 (\text{hafta}) = 1548 \text{ soat};$$

5-11-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini 0,8 koeffitsiyentga ko'paytirish orqali, ya'ni:

$$20 \cdot 0,8 = 16 + 20 = 36 \cdot 4,3 (\text{hafta}) = 154,8 \cdot 43 (\text{hafta}) = 1548 \text{ soat}.$$

5. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagog xodimining yillik ish yuklamasi (bir stavka hisobida) bir haftada 36 soat, bir oyda 154,8 soat, bir yilda 1548 soat miqdorida quyidagi qismlardan iborat holda amalga oshiriladi:

o'quv-tarbiya jarayoni;

o'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon.

6. O'quv-tarbiya jarayoni uchun ajratiladigan soatlar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

1-4-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini bir yil mobaynida dars mashg'ulotlari olib boriladigan haftalar soniga ko'paytirish orqali, ya'ni  $18 \cdot 34 = 612$  soat;

5-11-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi haftalik hajmini bir yil mobaynida dars mashg'ulotlari olib boriladigan haftalar soniga ko'paytirish orqali, ya'ni  $20 \cdot 34 = 680$  soat.

7. O'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon uchun ajratiladigan soatlar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

1-4-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi yillik hajmidan o'quv-tarbiya jarayoni uchun ajratiladigan soatlarni ayirish orqali, ya'ni  $1548 - 612 = 936$  soat;

5-11-sinflar uchun belgilangan bir stavka miqdoridagi ish yuklamasi yillik hajmidan o'quv-tarbiya jarayoni uchun ajratiladigan soatlarni ayirish orqali, ya'ni  $1548 - 680 = 868$  soat.

8. Ish reja ikki yo'nalishdagi tadbirlar majmuasidan iborat tarzda shakllantiriladi:

o'quv-tarbiya jarayoniga oid;

o'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid.

9. O‘quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish reja umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan dars jadvaliga ko‘ra pedagog xodimlarga tarifkatsiya bo‘yicha ajratilgan dars soatlari asosida shakllantiriladi.

10. O‘quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish reja asosida pedagog xodim tomonidan o‘quv yili boshlanishidan oldin taqvim-mavzuiy reja tuziladi. Dars mashg‘ulotlari taqvim-mavzuiy rejaga asosan olib boriladi.

11. O‘quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish rejaning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan umumiy o‘rta ta’lim muassasasi direktori va uning o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari nazoratni amalga oshiradi.

12. O‘quv-tarbiya jarayonining metodik ta’minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon umumiy o‘rta ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ma’naviyatini yuksaltirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bilan bog‘liq dars mashg‘ulotlaridan tashqari tadbirlarni o‘z ichiga oladi va ushbu tadbirlar muassasaning har yillik hamda istiqbol rejasida ko‘zda tutiladi.

13. O‘quv-tarbiya jarayonining metodik ta’minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid yillik ish rejada har bir pedagog xodimning lavozim majburiyatlari hamda u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda o‘quvchilarni barkamol va ma’naviy yetuk inson etib tarbiyalash maqsadida ularning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, fanlarni o‘zlashtirishda qiynalayotgan va iqtidorli o‘quvchilar bilan alohida mashg‘ulotlar olib borishi hamda pedagog xodimning o‘z ustida mustaqil ishlashi nazarda tutiladi.

14. O‘quv-tarbiya jarayonining metodik ta’minoti va tashkiliy-pedagogik jarayonga oid yillik ish rejada belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan pedagog xodimlardan hisobot talab qilinmaydi hamda tadbirlarni amalga oshirishning vaqt bo‘yicha hisobi yuritilmaydi.

15. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining dars va to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo‘yicha hisobotlar va qo‘shimcha ma’lumotlarni talab qilish qat’iyan taqiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlari tomonidan quyidagi hujjatlar yuritiladi:

sinf jurnali;

yillik taqvim-mavzuiy reja;

kundalik dars ishlanmalari (konspekt) daftari.

16. Yillik taqvim-mavzuiy reja hamda kundalik dars ishlanmalari (konspekt)ni elektron shaklda yuritilishiga ham yo‘l qo‘yiladi.

17. O‘rindoshlik va soatbay asosida dars berayotgan, ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimning mehnat vazifalarini o‘zining asosiy ishi bilan birgalikda qo‘shimcha ravishda bajarayotgan pedagog xodimlarga o‘quv-tarbiya jarayoni bilan birgalikda unga mos koeffitsiyentdagi o‘quv-tarbiya jarayonining metodik ta‘minoti va tashkiliy-pedagogik jarayon uchun ajratilgan soatlarga ham haq to‘lanadi.

18. Mazkur Yo‘riqnoma talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

***3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining “Umumta‘lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018-yil 17-dekabrda 9-mh-son qarorlarining mazmun-mohiyati.***

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan reyting tumanlar (shaharlar) kesimida tanlash asosida har yili tuziladi.

Reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish hamda nazorat ishlari va ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish o‘quv yili davomida amalga oshiriladi.

Umumta‘lim muassasalari reytingini tuzish maqsadida har yili 10-yanvarga qadar Davlat inspeksiyasi boshlig‘ining buyrug‘i asosida reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, umumta‘lim muassasalarida nazorat ishlari va ijtimoiy so‘rovnomalarni o‘tkaziti bo‘yicha komissiya tuziladi.

Reytingda qatnashadigan tumanlar (shaharlar) va umumta‘lim muassasalari ro‘yxati komissiya tomonidan belgilanadi hamda har yili 1-fevralgacha Davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

Davlat inspeksiyasi tomonidan ishlab chiqilgan reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish bo‘yicha jadvallar har yili 1-martga qadar ishchi guruhlar orqali hududiy bo‘linmalarga yetkaziladi.

Reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida ishchi guruhlar tomonidan har yili mart-may oylarida umumta‘lim muassasalari 9-sinf o‘quvchilarining umumta‘lim fanlari bo‘yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida yozma ish yoki test sinovlaridan iborat nazorat ishlari o‘tkaziladi.

Nazorat ishlari o‘tkaziladigan fanlar va savollar miqdori komissiya tomonidan belgilanadi.

Nazorat ishlari o‘tkazish uchun ishchi guruhlar tomonidan kamida bitta sinf qur‘a tashlash orqali aniqlab olinadi

Reytingni aniqlash quyidagi hisoblash metodikasi asosida amalga oshiriladi:



tegishli formula asosida reytingda ishtirok etayotgan barcha umumta'lim muassasalarining ballari har bir ko'rsatkich bo'yicha alohida hisoblanadi;

tegishli ko'rsatkich bo'yicha eng katta natijaga ega bo'lgan umumta'lim muassasasiga mazkur ko'rsatkich uchun belgilangan eng yuqori ball beriladi; qolgan barcha umumta'lim muassasalarining ballari eng yuqori ballga ega bo'lgan umumta'lim muassasasining balliga nisbatan hisoblab chiqariladi;

har bir ko'rsatkich bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi asosida umumta'lim muassasasining reytingi belgilanadi.

Reyting nastjalari ommaviy axborot vositalarida va Davlat inspeksiyasining veb-saytida keyingi o'quv yili boshlanishidan kechiktirmay joylashtiriladi.

Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar Davlat inspeksiyasida besh yil davomida saqlanadi.

#### ***4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash"gi 2018-yil 26-dekabrda 16-mh-son buyrug'i.***

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasasi kuzatuv kengashining maqsadi, vazifalari, vakolatlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1. Mazkur Nizom davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tatbiq etiladi.

Mazkur Nizom nodavlat umumta'lim tashkilotlari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

2. Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi va davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

3. Kengashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

ta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, viloyat xalq ta'limi boshqarmalari (bundan buyon matnda hududiy boshqarmalar deb yuritiladi) tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan ta'lim muassasasi rahbarini saylash;

ta'lim muassasasining maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash;

ta'lim muassasasida amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish.

4. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa qonun

hujjatlari, shuningdek, ta'lim muassasasining Ustavi hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

5. Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan ta'lim muassasasi rahbarini saylash, shuningdek, belgilangan tartibda uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;

ta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

ta'lim muassasasi rahbarining muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan tinglash;

ta'lim muassasasi rahbarining taqdimnomasi bo'yicha yillik moliyaviy rejalarni, ko'rsatilayotgan pullik hizmatlar narxining miqdorlarini va muassasa mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan auksiondagi boshlang'ich narxni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

o'quvchilar va ular ota-onalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, ta'lim muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to'g'risida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish;

ta'lim muassasasining faoliyatini tashkil etishga taalluqli boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish.

6. Ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash, jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish, o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari, ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir ta'lim muassasasida Kengash tashkil etiladi.

7. Kengash 7 kishidan kam bo'lmagan toq sondan iborat tarkibda tuziladi. Bunda, Kengash tarkibiga o'quvchilarning ota-onalari orasidan kamida 2 nafar, sobiq bitiruvchilar orasidan 2 nafar va nafaqadagi sobiq pedagoglar orasidan 1 nafar hamda homiylar orasidan 2 nafar a'zo kiritiladi.

Kengash a'zolarining soni cheklanmaydi.

8. Kengash a'zolari tegishli ta'lim muassasasi umumiy yig'ilishida o'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan ochiq ovoz berish orqali saylanadi.

Kengashning birinchi yig'ilishida ishtirok etayotgan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ochiq ovoz berishi orqali Kengash raisi va kotibi saylanadi. Bunda, Kengash raisi va kotibi Kengash a'zolari tomonidan saylanadi.

9. Ta'lim muassasasi direktori yoki uning o'rinbosarlari, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari Kengash a'zolari sifatida saylanishiga yo'l qo'yilmaydi.

10. Kengash tarkibi 3 yil muddatga saylanadi. Bunda Kengash tarkibi har o'quv yili boshida ko'rib chiqilishi mumkin.

11. Kengash a'zosi etib saylangan ota-onalarning farzandlari boshqa ta'lim muassasasiga o'tkazilganda yoki bitirib ketganda, Kengashning ushbu a'zosi Kengash a'zolari qatoridan chiqariladi va uning o'rniga ota-onalar orasidan boshqa a'zo saylanadi.

Kengash a'zosi kengashning yig'ilishlarida surunkali 3 marta uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan taqdirda, u Kengash a'zolari tarkibidan chiqariladi.

12. Kengashning birinchi yig'ilishi tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tomonidan tegishli ta'lim muassasasida tashkil etiladi.

Bevosita O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi yoki hududiy boshqarmalariga bo'ysunadigan ta'lim muassasalarida Kengashning birinchi yig'ilishi tegishli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan tegishli ta'lim muassasasida tashkil etiladi.

13. Kengash har chorakda kamida bir marta yig'iladi. Zarur hollarda navbatdan tashqari yig'ilishlar o'tkazilishi mumkin.

14. Kengash yig'ilishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

15. Kengash yig'ilishida uning umumiy a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda Kengash qaror qabul qilishi mumkin.

16. Kengash o'z faoliyatini daxlsizlik, oshkorlik, shaffoflik, adolatlik tamoyillariga muvofiq olib boradi.

17. Kengash qarorlari a'zolarining teng huquqliligi asosida ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Har bir Kengash a'zosi bitta ovoz huquqiga ega. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

18. Kengash yig'ilishlariga Kengash raisi raislik qiladi.

19. Kengash raisi o'z vakolatini vaqtinchalik bajarish imkoniyati bo'lmagan hollarda (hizmat safari, ta'til va kasallik davrida), uning vazifasini bajarish Kengash a'zolaridan biriga vaqtincha yuklatiladi.

20. Kengash yig'ilishlari mazkur Nizom talablariga muvofiq tashkillashtirilishi va o'tkazilishi hamda hujjatlarning to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilishi uchun Kengash raisi mas'ul hisoblanadi.

21. Kengash yig'ilishi o'tkazilishidan kamida 10 kun oldin yig'ilish o'tkaziladigan kun, vaqti, joyi va muhokama etiladigan masalalar haqida kengash a'zolari xabardor qilinishi lozim. Kengash a'zolarini xabardor qilish uchun Kengash raisi mas'ul hisoblanadi.

22. Ta'lim muassasasi rahbari Kengash ishini tashkil qilish (hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash uchun zarur bo'lgan xona, ta'lim muassasasi faoliyati

bilan bog‘liq ma‘lumotlar va kanselyariya jihozlari bilan ta‘minlash) uchun mas‘ul hisoblanadi.

23. Kengash yig‘ilishlari o‘tkazilganligi haqida bayonnomalar yig‘ilish o‘tkazilgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmay tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda uning hududiy boshqarmalariga taqdim etilishi lozim.

24. Kengash faoliyatiga tuman (shahar) xalq ta‘limi bo‘limi aralashmaydi va unga hisobdor emas.

25. Kengashning faoliyati bo‘yicha ma‘lumotlarni har chorakda ta‘lim muassasasining rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida yoki ta‘lim muassasasining barcha ko‘rishi mumkin bo‘lgan joyiga joylashtirish tavsiya etiladi.

26. Kengash o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

ta‘lim muassasasining tegishli davridagi faoliyati bo‘yicha ta‘lim muassasasi direktoridan ma‘lumotlarni so‘rash va olish;

ta‘lim muassasasining moliyaviy hisobotlari bilan tanishish;

homiyluk va xayriya mablag‘larining kiritilishi hamda sarflanishi haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishish;

ta‘lim muassasasi pedagoglarining sha‘ni, qadr-qimmatini, obro‘sinini himoya qilish bo‘yicha takliflar kiritish.

27. Kengash quyidagi vakolatlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan ta‘lim muassasasi direktori lavozimiga tavsiya etilgan nomzodlarning mehnat faoliyati, xulq-atvori, tajribasi, tashabbuskorligi hamda jamoadagi obro‘sinini o‘rganadi va tavsiya etilgan nomzodlar orasidan eng munosib nomzodni ochiq ovoz berish yo‘li bilan direktor lavozimiga saylaydi;

Kengash a‘zolari tomonidan nomzodga qarshi ovoz berilgan taqdirda, uni direktorlik lavozimiga tayinlashni rad etish haqida nomzodni tavsiya etgan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalariga ma‘lum qiladi;

ta‘lim muassasasi direktori va direktor o‘rinbosarlarining boshqaruv faoliyati, ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etilishi hamda o‘quvchilar, ularning otalaridan noqonuniy pul yig‘imlari undirilmasligi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatadi;

ta‘lim muassasasining umumiy yig‘ilishlarida qatnashadi, o‘quvchilar va otalarning manfaatlarini himoya qiladi;

ta‘lim muassasasida ijtimoiy-ma‘naviy muhitning buzilishi, ta‘lim sifatining pasayib ketishi, tizimli muammolarning kelib chiqishi, pedagoglar bilan

ma'muriyat o'rtasida yoki ota-onalar bilan ma'muriyat o'rtasida nizoli holatlar kelib chiqqan taqdirda, ta'lim muassasasi direktorini lavozimidan ozod etish bo'yicha hududiy boshqarmalarga taklif kiritadi.

28. Kengash a'zolariga mazkur Nizomda belgilanmagan vakolatlariga ega bo'lishlariga, ta'lim muassasasi direktorining qonunda belgilangan vakolatlariga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

29. Kengash o'z vakolati doirasiga kirmaydigan ishlarga aralashsa yoki o'z vazifalarini to'liq ta'minlay olmasa, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarqatilib yuboriladi. Bunda, Kengashning yangi tarkibi mazkur Nizomning 3-bobida nazarda tutilgan talablar asosida qayta shakllantiriladi.

30. Kengashning faoliyatiga ta'lim muassasasi rahbari, hududiy boshqarmalar, mahalliy hokimliklar va boshqa tashkilotlar aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

31. Ta'lim muassasasida o'quvchilar va ularning ota-onalaridan turli xil sabablar bilan Kengash a'zolari, ta'lim muassasasi rahbari va boshqa xodimlari tomonidan pul mablag'larini yig'ish qat'iy taqiqlanadi.

32. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish qanday tartibda amalga oshiriladi?

2. Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, yo'riqnomalari va qarorlarining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatiga oid qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilasiz?

4. Kuzatuv kengashlarining vazifalari nimalardan iborat?

5. Kuzatuv kengashlari qanday tartibda shakllantiriladi?

**IV**

**KEYSLAR BANKI**



**1-keys.** Davlatning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy-siyosiy guruhlariga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilishi uning mohiyatini ifodalaydi.

**Topshiriq:** *Davlatning mohiyatini atroflicha yoritib bering.*

Muammoning turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo`llari

**2-keys.** Davlat o‘z funksiyalarini amalga oshirishda muayyan shakl va usullardan foydalanadi. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllarining huquqiy va huquqiy xarakterga ega bo‘lmagan turlari mavjud.

**Topshiriq:** *Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllariga huquqiy baho bering va atroflicha yoritib.*

**3-keys.** O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng demokratik huquqiy davlat asoslarini barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Bunda hokimiyatlar bo‘linishi alohida ahamiyat kasb etib, davlat funksiyalarini samarali amalga oshirilishini ta‘minlab beradi, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo‘lishi shart.

**Topshiriq:** *O‘zbekiston hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanishini misollar yordamida yoritib bering.*

**4-keys.** O‘zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi shunda ko‘rinadiki, mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

**Topshiriq:** *Hozirgi kunda qonun chiqaruvchi organlarning davlat mexanizmida tutgan o‘rni ko‘rsating.*

**V**

**MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**



## V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy hujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul mavzularni chuqur o'rganish.

### Mustaqil ta'lim mavzusi

1. Ta'lim sohasidagi islohotlar, modernizatsiyalash va integratsiyalash jarayonlari.
2. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi – tizimda tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan tarixiy hujjat.
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilishda modernizatsiyalash va integratsiyalash jarayonlari.
5. Ta'limni rivojlantirishga doir xalqaro amaliyotni o'rganish va ilg'or tajribalarni joriy etish masalalari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonining ma'zmun-mohiyati va tarixiy ahamiyati.
7. Barkamol, mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish – ta'lim jarayonining bosh maqsadi.
8. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish.
9. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida mazmun-mohiyati.

## VI. GLOSSARIY

**Konstitutsiya**- (“constitution” lotincha soʻz boʻlib, “tuzish” degani) “qoida” va “nizom” maʼnolarini anglatadi. Konstitutsiyada jamoat va davlat tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvining asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlari aniq belgilab beriladi

**Inson huquqi**-insonning davlat bilan munosabatdagi huquqiy holatini, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlarini tavsiflash tushunchasi

**Konstitutsiyaviy huquq**-huquqning etakchi tarmogʻi, shuningdek, huquqiy fanlar va oʻquv-taʼlimi turlaridan biri. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquqning farqi shundan iboratki, konstitutsiya birgina qonun hisoblansa, konstitutsiyaviy huquq juda koʻp huquqiy manbalarni, shuningdek, konstitutsiyani oʻz ichiga oluvchi butun bir huquqiy tarmoqni qamrab oladi

**Yashash huquqi**-fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 24 moddasida mustahkamlab qoʻyilgan asosiy huquqlaridan biri. “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng ogʻir jinoyatdir”

**Deklaratsiya (Bayonnoma)**-qonundan farqli oʻlaroq deklaratsiya huquq va erkinliklarni eʼlon qiladi, konstitutsiya esa fuqarolar uchun ham, shu davlat hududida yashovchi odamlar uchun ham majburiy ravishda amal qilishni oʻrnatadi

**Jazo chorasi**-jazo jinoyat sodir etishdan aybli ekanligi isbot qilingan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan davlat nomidan qoʻllaniladigan majburlov vositasi. Mahkum qonunlarda nazarda tutilgan ravishda muayyan huquqlardan mahrum etilgan, qilgan aybiga qarab, jamiyatdan ajratib, qamab qoʻyiladi. Jazo mahkumni qayta tarbiyalash, jinoiy faoliyatini davom ettirishiga toʻsqinlik qilish, mahkumning qayta jinoyat qilmasligini va boshqa shaxslarning jinoyat qilishdan tiyilishlarini koʻzda tutuvchi majburlov chorasi

**Qonun**-Davlat xalq xoʻjaligining tegishli sohasiga oid meʼyorlarni belgilovchi, Oliy Majlisda qabul qilinadigan, sohaning strategik rivojlanishini ifodalovchi, uzoq muddatga moʻljallangan, takomillashib boruvchi hujjat.

**Farmon**-Tegishli soha yoki muhim obʻektga, voqeylikka nisbatan chiqarilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriq va koʻrsatmalarini ifodalovchi meʼyoriy hujjat.

**Farmoyish**-ijro etish muddati tezlikni, operativlikni talab etuvchi vakolatli idoralar rahbarlari tomonidan chiqariladigan meʼyoriy hujjat. Buyruq sohaga oid vakolatga ega boʻlgan tashkilotlarning turli rahbarlari tomonidan davlat qonuni, PF va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda yuqori tashkilotlarning turli koʻrsatmalar ijrosini taʼminlash hamda korxonalar, muassasa, tashkilotlar boshqaruvini amalga oshirish uchun chiqarilgan meʼyoriy hujjat.

## **VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T., O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T., O‘zbekiston, 2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. T., O‘zbekiston, 2019.

### **II. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni//Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., “Sharq” nashriyot matbaa konserni, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., “Sharq” nashriyot matbaa konserni, 1997.
- 4.O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 8-yanvar. Xalq so‘zi gazetasi.
5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2019-yil 24-may.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 15-sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 9-sentyabr.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2017-yil 4-yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4342-son Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 349-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 470-son Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 701-son Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Sh.Po‘latov. Ta’lim menjmenti yohud ta’lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. - T “Adabiyot uchqunlari”, 2017.

### **IV. Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

2. <http://www.president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

3. <http://www.giu.uz> – Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

4. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.

5. <http://www.xs.uz> – “Xalq so‘zi” gazetasi sayti.